

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo`lyozma huquqida

UDK: 894.35.023

BBK: 83. 3-3

X - 47

HIDOYATOVA MADINA RUSTAMOVNA

**YUNUS EMRO SHE`RLARIDA QO`LLANGAN TASAVVUF
ATAMALARNING LINGIVISTIK TADQIQI**

5A220102 - Lingvistika (turk tili) ixtisosligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: f.f.n., Tilavov A.

Toshkent – 2012

Himoyaga ruhsat berildi:

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti

Magistratura bo'limi boshlig'i :

Habibullayev A.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I.BOB. TURK TASAVVUF SHOIRI YUNUS EMRONING HAYOTI VA IJODI HAMDA ASARLARIDA QO'LLANGAN ATAMALAR TASNIFI.....	9
1.1Shoir ijodida tasavvufiy martabalar va tushunchalarga oid atamalar.....	24
1.2Tariqat va u bilan aloqador tushunchalar.....	39
1.3 Tasavvufda Alloh sevgisi va Alloh so'zining bir qancha ko'rinishlari .	47
II.BOB. YUNUS EMRO IJODIDA ISHQ VA OSHIQ ATAMALARI TALQINI.....	52
2.1. Ishq so'zi bilan bog'liq atamalar talqini	64
2.2. Oshiq so'zi bilan bog'liq atamalar talqini	68
XULOSA.....	72
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	75
ILOVA.....	77

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O`zbekiston mustaqillikka erishgach, yurtimizda ma'naviyatni yuksaltirish, milliy ma'naviy merosni tiklash, ma'naviyatga bevosita ta'sir etuvchi omillarni rivojlantirish borasidagi ishlar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Zero yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o`rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo`ladi"¹. Adabiyot ma'naviyatning ajralmas qismi ekanligini hisobga olsak, yuqoridagi masalalar, o'z navbatida, milliy adabiyotimiz bilan bir qatorda xorijiy xalqlar adabiyotiga ham taalluqli bo`lib, ularning atoqli so`z ustalari asarlarida ilgari surilgan vatanparvarlik, insoniylik, o`zaro hamkorlik va do`stlik, yuksak umumbashariy qadriyatlarga muhabbat g`oyalari zamonamiz kishilari uchun ayniqsa ahamiyatlidir.

Butun tarix mobaynida jahon adabiyoti hazinasiga salmoqli hissa qo`shgan turk adabiyoti ham, bir tomondan, o'z milliy an'analari doirasida rivojlanib, yangi bosqichlarga ko'tarilgan bo`lsa, ikkinchi tomondan, dunyoning boshqa mintaqalaridagi adabiy jarayonlar bilan o`zaro ta'sirda bo`lib kelmoqda.

Prezidentimiz I.Karimov 2009-yil 24-iyunda O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi B.Sh.Alimovni qabul qilib, uyushma faoliyatining samaradorligini oshirish, milliy adabiyotimizni rivojlantirish bo'yicha yozuvchilar, adabiy jamoatchilik oldida turgan dolzarb vazifalar haqida suhbatlashib, ushbu masalalar yuzasidan atroflicha fikr bildirgan edi.

Yurtboshimiz ayni paytda yozuvchilar uyushmasi faoliyatining samarasini oshirishdagi eng muhim masalalar haqida so`z yurita turib, jumladan quyidagilarni ta'kidladi: "...Qisqacha aytganda boshqa sohalar qatori adabiyot sohasida ham

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.- B. 29.

xalqaro aloqalarni kuchaytirish zarur. Qaysi mamlakatda bizning adabiyotimiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimizga hurmat bilan qarashadi, xoriждан biz nimalarni o`rganishimiz mumkin va, o`z navbatida, ularga nimalarni taqdim etishimiz mumkin – bugun bu masalalar xalqaro maydonda o`zligimizni namoyon etishda katta ahamiyatga ega ekanini doimo yodda tutishimiz lozim.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so`ng milliy qadriyatlarimizni o`rganish yo`lida katta izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yurtboshimiz I.A.Karimovning sa`y-harakatlari bilan ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan be`baho ma`naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini alohida ta'kidlash kerak. O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so`ng turli davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni o`rnatish hamda rivojlantirish davr talabiga aylandi. Bunday aloqalar taraqqiyotida o`zbek xalqini boshqa xalqlar, o`z navbatida, boshqa xalqlarni o`zbek xalqi hayoti, tarixi, madaniyati va san`ati yutuqlari bilan tanishtirish orqali o`zaro hamkorlik va do`stlik rishtalarini mustahkamlash va milliy tilni o`zaro boyitishda boshqa tillardan kirib kelgan so`zlarni o`rganishning ahamiyati nihoyatda muhimdir. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidlaganidek: “Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat safidan munosib va mustahkam o`rin egallab borayotgan O`zbekistonimizga, uning tarixan qisqa davrda qo`lga kiritgan ulkan marralariga el-yurtimizning ma`naviy ildizlari, urf-odat va an`analariga, bir so`z bilan aytganda, o`zbek xarakteri, o`zbek tabiatiga butun dunyoda qiziqish va hurmat tobora ortib bormoqda. Tabiiyki, uzoq-yaqindagi xorijiy do`stu birodarlarimiz, jahon jamoatchiligi, eng avvalo, bizning zamonaviy adabiyotimiz va san`atimiz orqali o`zlarini qiziqtiradigan ana shunday savollarga javob topishni istaydi”².

So`ngi yillarda din, xususan islom dini va uning insoniyat tarixiy taraqqiyotidagi o`rni masalasiga qiziqishning keskin darajada ortgani uning ana shunday keng qamrovli mazmun mohiyati bilan bevosita bog`liqdir. Bu qiziqish ayni paytda jahon

² Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma`naviyat, 2008. – B.138-139.

dinlari ichida eng yoshi bo'lishiga qaramay , islomning unga e'tiqod qiluvchi xalqlar ushbu din tarqalgan mamlakatlar hayotining turli sohalariga ko'rsatayotgan serqirra ta'siri bilan ham belgilanadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng tasavvuf adabiyoti va uning manbalarini o'rganish, tasavvuf tarixi, uning shakllanishi bosqichlari va omillariga tegishli ilmiy muammolarni tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday ilmiy-amaliy muammolardan biri sifatida tasavvuf terminalogiyasi va so'fiylarga xos tilning o'rganilishi hamda uning filologik ta'lim tizimiga tatbiq etilishi masalasi kun tartibidan o'rin egallagan. So'fiylarga xos tilning chuqur ramziylikka egaligi hamda unda timsollar olami va falsafiy mushohadalarning qorishib ketganligi mazkur tilga xizmat qiluvchi lug'aviy qatlam, ya'ni tasavvuf terminalogiyasini anglashda o'ziga xos murakkabliklar keltirib chiqaradi. Bu esa o'z navbatida tasavvuf terminlariga to'g'ri yondashuv ko'nikma va malakalarni shakllantirishga filologik ta'limning tadrijiy xarakterdagi uzviy qismi sifatida qaralishi zarurligini ko'rsatadi. Zero tasavvuf atamalarini keng qamrovli tahlil etmay turib, tasavvuf adabiyotini ham , bu adabiyot yaratgan mumtoz til xususiyatlarini ham to'la o'rganib bo'lmaydi.

Turk dunyosida Yunus Emro ijodi atrofida talaygina tadqiqotlar, bahsu munozaralar mavjud. Yunus Emroni yaxshi bilishimiz va tushunishimiz uchun bir qator ma'lumotlardan, asosan, tasavvuf ilmidan teran habardor bo'lishimiz kerak. Aslida Yunus Emro ham ana shu ta'limotning ta'sirida Yunus Emro bo'lib yetishdi. Zero, tasavvufni bilmasdan turib, Yunus Emroni tushuna olish mumkin emas.

Turk tilining grammatikasiga oid ilmiy manbalar bilan tanishish natijasida ma'lum bo'ladiki turk tilining morfologik, sintaktik xususiyatlari atroflicha o'rganilganligi holda bu tilning leksik hususiyatlari deyarli tadqiq etilmagan. Shuningdek tilning leksik qatlamiga doir atamalar bo'yicha maxsus ilmiy ishlar amalga oshirilmagan. Turk tilidagi tasavvufiy atamalar ham maxsus tadqiqot ob'yekti bo'lmagan. Shuning uchun bitiruv malakaviy ishimizga mavzu sifatida tanlangan tasavvufiy atamalar ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish turkshunoslikning muhim va dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Tasavvuf adabiyoti va uning terminalogiyasi O'zbekistonda faqatgina mustaqillik davridan boshlab jiddiy o'rganila boshlaganiga qaramay, bu sohada e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi. Tasavvuf ilmi va amaliyotining asosi butun kitoblarning onasi bo'lgan ummi kitob – Qur'oni karimga va Payg'ambar (s.a.v.) hadislariga borib taqalar ekan, yurtimizda islomshunoslik ilmining taraqqiyot yo'liga chiqishi tasavvuf adabiyoti tadqiqotlari doirasi kengayishi va rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bularning hammasi tasavvuf ta'limotining o'rganilishiga va uning terminalogiyasi sekin-asta bo'lsa-da, xalq orasiga singishiga, ayrim noma'lum istilohlarning talqin qilinishiga sabab bo'ldi. Tasavvuf terminalogiyasini shakllanishi bevosita tasavvuf adabiyotining taraqqiyoti bilan bog'liq.³ Dastlab suf – sufiy – tasavvuf kabi umumqo'llanishdagi terminlarga munosabat shakllandi. Ingliz olimi R.Nikolson tasavvufga berilgan 78 ta'rifni yig'ib, ularning har birida ishtirok etgan terminlarning ma'no qamrovini aniqlashga harakat qilgan.⁴ Mazkur tadqiqot ana shu yo`nalishdagi izlanishlarning davomi sifatida yuzaga keldi. Yunus Emro she'rlaridagi tasavvufiy atamalar o`zbek tilshunoslari tomonidan chuqur o'rganilinmagan. Uning she'rlari turk tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan, lekin ulardagi atamalar tadqiq qilinmagan. Bu borada dotsent A.Olimbekovning “Ishq asiri bo'lgan jon” tadqiqotini eslash joiz.⁵

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tilshunoslikda turli mavzularga doir atamalar ustida tadqiqot ishlari olib borilgan. Lekin to'plangan ma'lumotlarga nazar tashlasak turk tasavvuf shoirlarining she'rlaridagi tasavvufiy atamalar yetarli darajada o'rganilinmagan. Mazkur bitiruv malakaviy ishimizni yozishdan maqsad Yunus Emro she'riyatidagi qo'llanilgan tasavvufiy atamalarni leksik xususiyatlarini tadqiq qilishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilanadi.

- Yunus Emro she'rlaridagi tasavvufiy atamalarni to'plash;
- To'plangan tasavvufiy atamalarni ma'nosiga ko'ra tasniflash;

³ Komilov N. Tasavvuf T.: O'zbekiston, 2011.

⁴ Nicholson R.A. A History Enquiry Concerning the Origin and Development of Sufism, in JRAS of Great Britain and Ireland. – L: 1906, PP. 303-348

⁵ Olimbekov A. ishq asiri bo'lgan jon. T.: “O'zbekiston” 1998.

–Amalga oshirilgan tasnif asosida tasavvufiy atamalarning ma’no xususiyatlarini o’rganish.

Tadqiqot ob’yekti. Turkcha izohli lug’atlar, turkcha-j’zbekcha ikki tilli lug’atlar, ensiklopediyalar, tasavvufiy maqollar va atamalar, Yunus Emro devoni va boshqa ilmiy materiallar disertatsiya ishimizning asosiy manbalari, ulardagi tasavvuf bilan bog’liq atamalar tadqiqot ishimizning asosiy ob’yekti hisoblanadi. Bunda asosiy diqqat-e’tibor tasavvufiy atamalarning o’ziga hos xususiyatlariga qaratilgan. Shu tarzda ilmiy ish oldiga qo’yilgan masala amaliy isbotlar asosida hal etildi.

Tadqiqotning metodologik asosi va asosiy ilmiy metodi. Mustafo Tatchining Yunus Emro devoni asosida yozilgan tasavvufiy atamalar masalalariga bag`ishlangan ilmiy tadqiqotlari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etdi.⁶

Tadqiqotni amalga oshirishda hozirgi zamon tilshunosligining ilg’or uslublari asos bo’l masalalariga bag`ishlangan ilmiy tadqiqotlardan ham foydalandik. Bu ishda qiyosiy va tahliliy metodlar qo’llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Tilshunoslikda turli mavzularga doir ilmiy atamalar ustida tadqiqot ishlari olib borilgan. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi uchun material to’plash va uni yozish chog’ida Yunus Emro ijodidagi tasavvufiy atamalar mavzusining O’zbekistonda magistrlik ilmiy tadqiqoti darajasida hali o’rganilmaganligiga amin bo’ldik.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Yunus Emroning Devonidagi tasavvufiy atamalar bilan o’zbek tasavvufshunoslari talqinidagi atamalarni solishtirib chiqish va ular orasidagi farq va o’xshashliklarni tadqiq qilish mumkin. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi kelgusida turk tilidagi tasavvufiy atamalar bilan ishlayotgan tadqiqotchilar uchun qo’shimcha manba bo’lib hizmat qiladi.

Ushbu magistrlik ishining asosiy natijalaridan oliy o`quv yurtlarida “Tasavvuf atamalari”, “ Yunus Emro she’rlaridagi tasavvufiy atamalar” mavzulari bo`yicha

⁶ Tatçı Mustafa. Yunus Emre. İstanbul, 2009

mashg`ulotlar olib borish, maxsus kurslar o`qish, turli uslubiy tavsiyanomalar, darslik va qo`llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi. Tadqiqot ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Ushbu tadqiqot mavzusi bo`yicha “Yunus Emro ijodida “ishq” talqini” va “Yunus Emroning turk tiliga qo`shgan hissasi” nomli maqolalar chop etilgan. Shuningdek, “Ishq va oshiq kuychisi” nomli kitob chop etish uchun topshirilgan.

I.BOB. TURK TASAVVUF SHOIRI YUNUS EMRONING HAYOTI VA IJODI HAMDA ASARLARIDA QO'LLANGAN ATAMALAR TASNIFI

Yunus Emro o'rta asrlarda yashagan turk shoirlari ichida turk tilida asarlar yozib, yozganda ham keng xalq ommasiga tushunarli tarzda ravon she'rlar yaratib mashhur bo'lgan shoirdir. U turk tilida ma'rifiy she'rlar yozgan shoirlarning eng mashhuri, buyuklaridan, eng birinchilaridandir. Nafaqat turk xalqi, balki butun dunyo uning muxlisidir. Yunus Emro juda chuqur fikrlarni sodda qoliplarda, shakllarda ifodalash qobiliyatiga ega; juda keng, kuchli fikrlarni qisqa, ixcham jummlalar, misralar holida tushuntira oladigan bir shoir; iftixor qila oladiganimiz bir insondir. 1992-yilni "Yunus Emro yili" deb e'lon qilinganligi ham shundan dalolat beradi.

Avvalo, Yunus Emro shunchalar mashhur bo'lsa-da, bizgacha u haqda juda kam ma'lumot yetib kelgan. Hayoti haqida ko'p narsalar noma'lum, manbalar yo'q, hatto qabrining qayerda ekanligi haqida ham haligacha bahs, tortishuvlar davom etadi. U xalq orasida mashhur shoir bo'lsada, o'rta asr tazkiralarda u haqda juda kam ma'lumot uchraydi. Yunusning hayoti bilan bog'liq eng katta ma'lumot Firdafsiyning "Viloyatnoma-i Hoji Bektosh-i Vali" asarida va XVIII asrning so'fiy tazkirachilaridan Ibrohim Hasning "Tazkira" nomli asarida berilgan. Yunus Emro hayoti va ijodini o'rganishni boshlab berganlardan biri avstraliyalik turkshunos Hammer Prushtgaldir. U XIX asrning birinchi yarmida turk adabiyotiga oid bir qancha tadqiqotlarni e'lon qiladi. Shoirning shaxsiga qiziqish so'nggi paytlarda ancha kuchaydi.⁷ Tarixshunos Gibning fikricha Yunus o'zining "Ar-risolatu nusxiyya" asarining oxirida yozgan:

Söze tarih yidi yüz yidi idi

Yunus cani bu yolda fidi idi

baytida keltirib o'tgan tarixi sababli uni H. VII asrning oxiri va VIII asrning boshlarida yashab o'tganligini ko'rsatadi. Lekin ba'zi olimlar bu fikrga qarshi chiqadilar. Ular bu sanalarni Yunus Emro tug'ilgan sana yoki Tabduq Emroga suluk bo'lgan sanasi

⁷ Olimbekov A. Turk adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. T.: "Universitet" 1990. B. 28.

ham bo'lishi mumkin deydilar. Fuat Ko'prulu esa butun qarashlarni va taxminlarni o'rganib chiqib, tarixiy manbalardagi ma'lumaotlarni to'plab, nihoyat Yunus Emroning yashagan davrini XIII asrning oxiri va XIV asrning ilk yarmi deb belgilab berdi. H. Duda va Burhan Umit ham Fuat Ko'pruluning qarashlarini o'rganib chiqib bu fikrga qo'shildilar. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki yuqoridagi baytda keltirilib o'tilgan sana ya'ni H. 707 sanasi shu davrda kamolotga erishib asar yozganidan darak beradi.

Yunusning tug'ilgan joyi haqida ma'lumotlar juda ham ozdir. Rivoyatlarga tayangan ma'lumaotlar esa asossizdir. Xoji Bektoshiyning "Viloyatnoma" sida Yunusning Sivrihisorning Sarikoy nomli bir qishlog'ida tug'ilgani ko'rsatib o'tiladi. Ayni shu asarda Yunusning qabri ham shu qishloqqa yaqin bir joyda ekanligi yoziladi. Adnan S. Erzining Istanbul Boyazid Davlat kutubxonasidan topgan bir ma'lumotda shunday yozilgan edi: " Vefat-I Yunus Emre, sene 720, muddeti-i ömr 82 " (Yunus Emro 720-yil vafot etgan , 82 yil umr kechirgan) bu so'zlardan ko'rinib turibdiki Yunus Emro H. 638/M. 1240-1241- yillarda tug'ilgan.

Yunus Emroning she'rlarida bu sanalarning tog'ri ekanligini ko'rsata oladigan bazi bir ma'lumotlar uchrab turadi. Yunus Mavlono Jaloliddin haqida shunday deydi:

Mevlana Hudavendgar bize nazar kılalı

Anun görklü nazarı gönlümüz aynasıdur

Mevlana sohbetinde saz-ıla işret oldu

Arif ma`niye taldı kim biledür ferişte⁸

Devoninig ikki joyida bunday Mavlononing suhbatida bo'lgani va uning " go'rklü nazari" (ko'rkam nazari) ni ko'rishga sazovar bo'lgani aytib o'tilgan va Mavlono 1273-yilda vafot etganida 33-34 yoshlarda bo'lgan Yunus , boshqa bir baytida Mavlonodan eshitgan hasratlarini shunday yozgan edi:

Fakih Ahmed Kutbüddin Sultan Seyyid Necmüddin

Mevlana Celalüddin ol kutb-ı cihan kanı.

⁸ Yunus Emre. Divan. Hazirlayan Mustafa Tatçı. İstanbul, 1998 S. 58.

Bu baytda nomi tilga olingan Hoja Ahmad Fakih “ Charxnoma” nomli asarning sohibidir va Yunusning tug’ilishidan 20 yil avval 1221- yilda (H.618) vafot etgan.

Yunus baytlarida ko’rsatib o’tgan zamondoshlari yashagan davr XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning boshlaridir. Yunusning o’zi ham XIII asrning ikkinchi yarmida va XIV asrning boshlarida yashab o’tgan. Bu davr Saljuqiylarning oxirgi davri va Usmon G’ozi davrlariga to’g’ri keladi.

Yunusning qayerlik bo’lganligi, qayerda tahsil olganligi, qayerlarda bo’lganligi, qanday yashagani xususida ham qo’limizda aniq ma’lumot yo’q. Bektoshiyning rivoyatlariga ko’ra Yunus Sivrihisor yaqinidagi Sariko’ya tug’ilgani va o’sha yerda vafot etganligi aytib o’tilsa-da bu faqat rivoyatligicha qolmoqda.

Yunus Emroning she’rlarida yaxshi tahsil ko’rganligi, arabcha va forschani, islomiy ilmlarni, islom tarixini qisqa qilib aytganda o’z davrining butun ilmlarini bilganligi ko’rinib turadi. U yashagan davrda eng muhim va eng mashhur ilm va madaniyat markazi Konya ekanligini inobatga olib Yunus tahsilini Konyada olgan degan taxminlar ham bor. Bu taxminlar quyidagi misralar tufayli yuzaga kelgan:

Bir gönül ele getir feragat ol geç otur

Gönye (Konya) şehrinde yatur ol iki sultan kanı.

Yunusun bu sözünden sen ma`nı anlar-ısan

Konya minaresini göresin bir çuvalduz.

Yunus bir qancha shaharlar va viloyatlarni kezib chiqqanligi xususida o’z she’rlarida keltirib o’tgan:

Gezerem Rum ile Şam`ı Yukarı illeri kamu

Çok istedüm bulımadum şöyle garib bencileyin.

Indik Rum`a kışladuk çok hayr ü şer işledük

Uş bahar oldi girü göçdük elhamdü lillah.

Yunus Emro yuqori viloyatlarni (Azarbayjon va Eron) Anadolu shaharlarini, Shomni (Suriya viloyatlarini) qanday maqsadda kezib chiqqani aniq emas. Balki tahsil olish uchun, balki buyuk ilm va ko'ngilga yaqin insozlarni ziyorat etish uchundir, balki bir oshiq hijroni tufayli bunday safarlarni amalga oshirgandir. Balki bu sanab o'tilgan yerlarga hech ham bormagandir, bu joylar borishni istagan yerlardir balki. Faqat shunisi ayonki Yunus bu safarlarni tariqatini targ'ib qilish uchun amalga oshirmagan. Chunki u na bir tariqat asoschisi, na bir tariqatni targib qiluvchi bo'lgan. U shunchaki mutasavvuf shoiridir va she'rlarida aniq bir qarashlarni targ'ib qilib she'r bitmaydi.

Islom tasavvufining qoidalarini soddalik bilan, chuqur va hech bir qolipga tushirmasdan tilga olgan Yunus Emroning Tabduq Emro nomli bir shayxning muridi bo'lganligi ba'zi manbalarda ko'rsatib o'tilgan. Bu ma'lumot aniq va keskin bir hujjatlarga asoslanmagan. Buni ko'proq rivoyatlarga bog'lab tahmin qilishgan. Tabduq Emro ham afsonaviy shaxs ekanligidan buni bilish mumkin. Bunday inson hali bormi yo'qlimi bu ham aniq emas. Yunus she'rlaridagi Tabduq so'zi ham ba'zon aniq bir shaxsni emas, Tangriga murojat etishning bir shaklidir.⁹

Yunus Emroni hayotda qanday ish bilan mashg'ul bo'lganligi, nima qilgani ham hali ma'lum emas. Uni Karamanlik deb ta'kidlagan ba'zi manbalarga murojat qilsak boy-badavlat bir inson bo'lganligi, chorvachilik bilan shug'ullanib shu bilan savdo qilganligi haqida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan. Sarikoyli ekanligini ta'kidlagan ma'lumotlarda uni dehqon bo'lganini, ekin ekib kun ko'rgani ko'rsatib o'tilgan. Ikki ehtimolni ham to'g'ri deb hisoblay olamiz. Dehqonchilik va chorvachilikni bir paytning o'zida yuritish mumkin. Dehqonchilik qilib, ekin ekishi Yunusni tasavvuf bilan shug'ullanishiga halal qilmagan. Uni faqatgina darvesh va shayx bo'lib yashaganini ko'rsatadigan ma'lumot hali topilmagan.

Yunusni uzoq umr kechirgani she'rlarida ham aks etadi:

Niceler eydür Yunus'a kocaldun ışkı kogıl

Işk bize yenile geldi henüz dahı turvandadır.

⁹ Yunus Emre. Divan. Hazirlayan Mustafa Tatçı. İstanbul, 1998 S. 58.

Uylanganligi haqida esa quyidagi bayt orqali bilishimiz mumkin:

Bunda dahı virdün bize ol hurıyı çift ü halal

Andan dahı geçdi arzum sana kaçmağ için

Yunusning qayerda o'lganligi va qabri qayerda ekanligi haqida ham aniq ma'lumot yo'q. Uni qabri deb bir qancha joylar ko'rsatib o'tilgan. Bursa, Bolu, Egridir, Erzurum, Keciborlu, Karaman, Sarikoy va boshqa joylarda Yunus Emroni qabri borligi ilgari surilgan mozorlar mavjud. Hech shubhasiz bular uni qabri deb atay olmaymiz, bu yerlarda uni maqbarasi qurilgan bo'lishi ham mumkin. Turk xalqi Yunus Emroga katta hurmatda bo'lganligi uchun unga har bir yerda maqbaralar qurdirganlar. Bu taxminiy qabrlar ichidagi Sarikoydagi qabr Yunusning haqiqiy qabri bo'lishi mumkin. Azaldan xalq orasida yashagan ishonch va an'ana, ba'zi qadimgi manbalardagi ma'lumotlarda Yunusni Kutahya suvining Sakarya daryosiga quyilishi yaqinida, ya'ni Sivrihisorga tegishli Sarikoyda yotganini ko'rsatadi. Bu ma'lumot aniq bo'lmasada qo'limizdagi hujjat va dalillarga ko'ra hozirda eng ishonarli ehtimoldir deya olamiz. Sarikoyda bir maqbara qurilib 1949-yil 6-mayda nishonlangan marosimda Yunus Emroning suyaklari eski mozoridan olinib maqbaraning orqasida hozirlagan joyga ko'chirilib o'tkazilgan. Bu marosimda 20 mingga yaqin kishi qatnashgan. Maqbara va Yunusning yangi qabrqancha yil oldin yana o'zgartirilgan, poyezd stansiyasiga yaqin bir joyga ko'chirilib kelingan.¹⁰

Yunus Emroning afsonaviy hayoti

Yunus Emroning hujjat va dalillarga tayangan haqiqiy hayoti haqida juda oz ma'lumotlar bo'lsa, uning afsonaviy va dostonlardagi hayotiga doir bir qancha ma'lumot bor. Afsonaga ko'ra Yunus bir darvesh sifatida ko'rsatilinadi, shayxining huzurida 30-40 yil xizmat qilgan bir darvesh sifatida. Yunusning darveshlikga kirganligi va uning diniy hayoti Bektoshiyning " Viloyatnoma" asarida shunday tilga olingan:

Xoji Bektoshiy Vali Xuroson shahridan Runga (Anadoliga) kelib joylashganidan keyin valiyligini va karomatlari har tomonga yoyilib ketti. Har tarafdin muridlar kelishni boshladilar va katta majlislar qildilar. Faqir insonlar kelib nasibasini olib ketardilar.

¹⁰ Yunus Emre Divani. Hazirlayan K. Timurtaş. İstanbul, 1972. S. 7.

O'sha paytlarda Sivrihisorning shimol tomonida Sarikoy degan qishloqda Yunus degan bir kimsa bor edi. U g'oyat faqir holda yashab, ekin ekib kun ko'rardi. Bir yili ekin hosil bermadi va qahatchilik boshlandi. Yunus odamlardan u Xoji Bektoshi haqida juda yaxshi gaplar eshitti. Hammani bu dargohdan bo'sh qo'l bilan chiqmasligini eshitib u ham yo'lga otlandi. Quruq bormay deb to'g'dan olib yelkasiga ortib yo'lida davom etdi. U yerga yetib kelib Xoji Bektoshiy Valiyning oldiga keldi va arzini ayti " Men bir faqir insonman, bu yil hosilim nobud bo'ldi hech narsa ololmadim, sendan umid qilib keldim, mana shu tortig'imni oling va menga bug'doy bering haqqingizga duo qilaman" debdi. Xoji Bektoshiy esa " mayli sen aytgancha bo'la qolsin" deb shogirtlariga murojat qildi, alichni olib bo'lishib yedilar. Yunus bir necha kun uning dargohida dam oldi. Ketadigan kuni esa Xoji Bektoshiyga habar berdilar, u ham "Qani yana so'rab ko'ringlarchi nima hohlar ekan bug'doymi yoki duomi?" dedi. Undan so'rasalar " Men duoni nima qilaman, menga bug'doy kerak" deb javob beribdi. Yunusning javobini Xoji Bektoshiyga yetkaziptilar. U " Yunusga aytinglar alichini har donasiga duo qilaman" deb buyuripti. Yunus esa "Ahli ayolim bor duo qorinni to'ygazmaydi, menga lutf qilaman desalar bug'doy bersinlar". Bu so'zini ham Bektoshiyga yetkazdilar. Bu gal u " borib ayting alichini har danagi uchun o'nta duo qilaman" dedi. Yunus bu so'zga ham norozi bo'lib " Men duoni nima qilaman, bola-chaqam bor menga bug'doy kerek" deb qattiq turib oldi, rozi bo'lmadi. Xoji Bektoshiy istaganicha bug'doy berib yuborishlariga deb buyruq berdi.

Yunus hayirlashib yo'lga chiqdi. Qishloqning pastki tarafidagi hamomning boshiga kelganda aqli joyiga keldi. "Viloyatdagi eng qo'li ochiq insonning oldiga bordim, meni qabul qildilar. Alichimning har danagi uchun menni o'n marta duo qilaman dedilar, men ulardan xafa bo'ldim. Qanday bema'ni ish qildim-a, g'ofillik qildim. Endi bu bug'doy bir necha kun ichida tugaydi, dou esa o'lgunimcha menga hamroh bo'ladi, shu nasibamdan mahrum bo'ldim. Ortga qaytaman, ularning dargohiga boraman. Koshki tashab ketgan nasibamni qaytib bersalar". Yunus qaytib yana shu terga keldi. Bug'doyni hokizini ustidan tushurdi. Halifalar bu holatni ko'rib Yunusga " Nega ortga qaytding?" deb so'radilar.

Yunus “ Menga bug’doy kerakmas himmat qilib bermoqchi bo’lganlari nasibamni bersinlar” dedi. Yunusni qaytib kelganligi, o’z nasibasini so’rayotganligi haqida Bektoshiyga habar berdilar. Xoji Bektoshiy aytdiki: “ Endi kech qoldi. Biz u qulfni kalitini Tabduq Emroga berdik, borib nasibasini undan olsin”.

Yunusga bu habarni yetkazdilar. Buni eshitib Yunus yo’lga chiqdi va Tabduq Emroning yoniga keldi. Xoji Bektoshiyning salomini yetkazdi, mavjud bo’lgan ahvolni tushuntirdi. Tabduq Emro “ Xush kelibsan, sening holindan habarimiz bor, hizmatimda bo’l va nasibangni ol” dedi. Yunus esa shunday javob qildi : “ Nima hizmat bo’lsa hammasiga tayyorman”.

Tabduq xonadoning ortida tog’ bor edi. Tapduq Yunusga shu tog’dan o’tin olib kelish uchun yubordi. Yunus har kuni shu tog’dan o’tin keltirardi. O’tinni yelkasiga ortib olib kelardi. Lekin egri-bugri o’tinni olib kelmasdi. “Bu xonadonga egri o’tin loyiq emas” derdi.¹¹ Naqt qirq yil shu xonadonga xizmat qildi.

Kunlardan bir kun Anadoludan kelgan fozillar Tabduq Emroning xonadoniga keldilar. Katta yig’ilish bo’lib majlis o’tkazildi. Majlisda Yunus-i Guyendi degan bir ovozi shirali inson ham qatnashardi. Yunus Emro ham o’sha yerda edi. Tabduq Emro ilhomlanib Guyendiga “ Yunus kuyla” dedi. Guyendi eshitmadi. Yana takror “ Yunus seni kuyingni eshitmoq istaymiz” dedi. Yunus-i Guyendi yana eshitmadi. Uchunchi gal ham Yunusdan habar bo’lmagach , bu gal ikkinchi Yunusga ya’ni Yunus Emroga murojat qilib “Yunus vaqti keldi. O’z hazinangni kalitini och, nasibangni olib bo’lding. Endi sen kuyla! Bu majlisda sen ham qatnash” dedi. Yunusni ko’ngli yorishdi, ko’zlari chaqnab qalbdan jo’shib kuylay ketti. Zavq-u shavqga to’ldi. ..

U gapirarkan ichidan javohirga teng so’zlar otilib chiqardi. Ilohiy haqiqatlarning sirlaridan shunday to’lib gapirardiki uni tinglab o’tirganlar hayratdan lol qolardilar. Keyinroq esa u gapirgan gaplarini qog’ozga tushurdilar. Hamma uchun aziz bir devon bo’ldi.

¹¹ Olimbekov A. ishq asiri bo’lgan jon. T.: “O’zbekiston”. 1998. B. 11.

Rivoyatlarga ko'ra Yunus Emro uch ming she'r bitgan. Bu she'rlar devon holiga keltirilgan. Bu devon Mulla Qosim ismli kishining qo'liga tushib qoladi. Bu she'rlar shariyatga to'g'ri kelmaydi deb bir qanchasini yoqib yuboradi. Mingtasini yoqib bo'lgach qolganini suvga uloqtiradi. Uchinchi mingtasini qo'liga olganida o'ziga atalgan shu baytga ko'zi tushib qoladi:

Dervish Yunus bu sözi eğri büğrü söyleme

Seni sigaya çeken bir Molla Kasim gelür

Bu baytni o'qib tugatmasdanoq Yunusning karomatiga ishonibdi, devonni o'qib peshonasiga suripdi. Faqat afsuslar bo'lsinki qo'lida ming dona she'r qolgandi. Hozir Yunusning yoqilgan ming she'rini ko'kda farishtalar, dengizga

uloqtirganlarini baliqlar kuylarmish. Qolgan ming donasini odamlar o'qib zavqlanarmish.¹² Yunus Emro haqida yana bir qancha diniy rivoyatlar va afsonalar bor. Bularning hammasi uni Turk millati tomonidan qanchalik hurmati balandligini ko'rsatadi. Yunus emro ular uchun bir avliyodek bo'lib qolgan buyuk va ilohiy shoirdir.

Emreler jamiyati va “Emre” laqabi hususida

Hech bir tariqatga bog'liq joyi yo'q deb topilgan Yunus Emronini “ emrolar” deb nomlangan bir jamiyatga mansub bo'lgan degan fikr uyg'onmoqda. “ Emro” so'zini Yunus va tabduqdan tashqari boshqa shaxslarda ham qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin. Emro laqabini olgan, ammo shoir bo'lmagan insonlar ham bordir. Salihli va Kula shahridagi Emro qishlog'ida Shayh Emro nomli zot yashab o'tgan.

Anadolining turli joylarida Emro, Emrolar, Emro Sulton, Emrojik, Imre, Imreli, Imre Hajili, Emrem Sultan kabi nomlangan qishloqlar borligi “ Emro” so'zini bir paytlar juda ko'p ishlatilinganini, buni bir jamiyat yoki bir laqab bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.¹³

“Emre” so'zi Eski turk tilida “amarmak” so'zidan kelib chiqqan. Amarmak so'zi “sevmoq, oshiq bo'lmoq” degan ma'noni anglatadi, bundan kelib chiqqan amrag' va

¹² Yunus Emre Divani. Hazirlayan K. Timurtaş. İstanbul, 1972. S. 11.

¹³ Yunus Emre Divani. Hazirlayan K. Timurtaş. İstanbul, 1972. S. 11.

amrak so'zlari esa "oshiq, sevuvchi, do'st, seviluvchi" ma'nolarini bildiradi. G'arbiy turk tiliga o'girilganda amrag' so'zining oxiridagi "g" tushib qolgan va "a" ham yumshab so'z "emre" shakliga kelgan. Amrak so'zining oxiridagi "k" esa "h" ga o'zgargan, boshidagi "a" ham yumshab "e" bo'lib "emrah" so'zi yuzaga kelgan. Asosan amrag va amrak so'zining eski turk tili davrida (uyg'urcha matnlarda) emrag' va emrak bilan baravariga imrag' va imrak shakli ham qo'llanilgan. "Imre" va to'lig'i "emre" so'zini "imrenmek" so'zidan kelib chiqqan deguvchilar bo'lsa ham bu qarash noto'g'ri deb hisoblanadi. Chunki, eski turk tilida bugun ishlatilinmagan va "sevmoq" ma'nosida kelgan "amramak" va "amranmak" so'zlari yonida bugungi ma'nosi bilan "imrenmek" so'zi ham joy olgani holda, bundan kelib chiqqan imreg va imrek kabi so'zlar mavjud emas. Shunday qilib "emre" so'zi "amramak" so'zidan kelib chiqqan amrag' so'zining G'arbiy turk tilida yumshatilib aytilishidir. "Oshiq, sevuvchi" ma'nosini bildiradi, "imre" esa "emre" ning boshqacha qilib aytilishidir.

"Oshiq" ma'nosini anglatgan "Emro" so'zini XIII – XV asrlarda bir jamiyatni anglatgani yoki bir laqab bo'lganligi ko'rinib turibdi. Shuningdek, keyinchalik xalq soz shoirlariga "oshiq" nomi beriladigan bo'lgan.¹⁴

Yunus Emroning turk tiliga qo'shgan hissasi

Yunus Emro eski Anadolu tirk tilining asoschilaridan biridir. Bu tilni yuzaga kelishida eng muhim rol o'ynagani, uni shunday mahorat bilan ishlatib, rivojlantirgani uchun hatto u davrning buyuk san'atkorlari ham tan olishgandi. Yunus Emro xalq ijodi yo'lida she'rlar yozishga, aytmoqchi bo'lgan fikrlarini savodsiz odam ham tez ilg'ab oladigan darajada sodda asarlar yaratishga intilgan. Emro asarlariga nisbatan aytiladigan soddalikni jo'nlik bilan almashtirmaslik kerak. Ko'pchilik savodsiz bo'lgan bir paytda yozma adabiyot namunalari hofizlar, kuychi oshiqlar, baxshilar orqali xalq o'rtasida targ'ib qilingan. Emro g'azallarining xalq qo'shiqchilari tomonidan ko'plab kuylanishiga sabab, shoir g'azallarining musiqiyligidan tashqari, uning turkiy tilda yozilganligidir. Yunus Emro Sulton Valad, Dehhani va Gulshahri bilan bir davrda ijod qilgan. Ulardan oldin yashab o'tgan Mavlono, Ahmad Fakix va Shayyod Xamza ham shu asrning

¹⁴ Yunus Emre Divani inceleme. Dr Mustafa Tatci. İstanbul. 2008. S. 11

shoirlari hisoblanadilar. Bular o'z asarlari orqali yangi adabiy tilni yuzaga keltirgan edilar. Anadoli Saljuqiylar davrida din va ilm tili arab tili hisoblanar, adabiyot tili esa fors tilida edi. Ba'zi bir sabablarga ko'ra forscha saroy tili hisoblanib rasmiy til sifatida qo'llanilardi. G'azal ham , tasavvuf g'oyasi ham turklarga arab va fors ilmiy manbalaridan kirib kelgan. G'azal janr nuqtai nazaridan ham ko'proq arab va fors tili hususiyatlariga mos. Shuning uchun g'azalnavis turkiy xalq shoirlarining ko'pchiligi fors tilida ijod qilib, turkiy yozsalarda arabcha so'zlardan keng foydalanganlar. Bu qusurdan Yunus Emroning zamondoshlari ham xoli emasdilar. O'sha davrda uning o'z asarlarida ko'proq asil turkiy so'zlardan foydalanishiga intilishi, fikrini jimjimador misralarda emas, imkoni boricha keng xalq ommasi tushunadigan darajada, ayni paytda yuksak mahorat bilan asar yozishi nihoyatda ahamiyatlidir. Yangi bir adabiy tilni yuzaga keltirishda Yunus Emro xalq tiliga va so'zlashuv tiliga tayangan holda harakat qilgan. Yunus Emro yashagan asrda xalq og'zaki ijodining rangli va boy bir tili bor edi. Bu adabiyotdan yozuvga ko'chirilgani uchun bizgacha yetib kelgan " Dada Qo'rqu" hikoyalari buning eng yaxshi dalilidir. Lekin turklarning u paytda rivojlangan bir yozuv adabiyoti xoh she'riy, xoh nasrda bo'lsin haligacha yo'qdir. XIII asrning yozuvchilari Respublika davri yozuvchilarining til muammosi bilan to'qnashdi. Respublika davri yozuvchilarining o'tmishda besh yuz minglik adabiyoti bor edi. Lekin xalq tili va adabiyoti yangi tushunchalari, yangi dunyo qarashlarini tushuntirish, ayniqsa ilm tilini vujudga keltirish uchun yetarli emasdi. U payt yangi bir madaniyatni qulay va oson tushuntirish uchun yangi lug'atlar, yangi iboralar ishlab chiqilar yoki boshqa turk lahjalaridan olinar edi. Yunus Emro ham xuddi shu muammo bilan yuzlashdi. Turk dostonlarining tili yoki turk xalq adabiyotining tili yangi musulmon ideologiyasining tili emasdi, islom madaniyatini ochib berishga yetmasdi. Musulmonlarning muqaddas kitobi, adabiyoti, afsonalari va hikoyatlari arabcha va forscha yozilgandi. Yunus Emro she'larida bu tushunchalarni aniqlashtirish uchun yo yangi so'zlar tuzardi yoki qilaolmaganida boshqa tildan foydalanardi. Yunus Emro ongli ravshda bu yo'lni sinab ko'rdi. Lekin arabcha va forschani grammatik qidalarini ishlatmaslikka harakat qilardi. Bunday og'ir she'rlar tilini o'zi ishlab chiqishni eplardi. Bu haqiqatdan ham qiyin ish edi. Chunki muammo faqatgina turli manbalardan to'plab yozuv tilini qurish emasdi., ayni paytda bu tilni o'quvchisiga sevdira olish ishi edi. Yunus Emro bu ishi bilan shu

qadar shuhrat qozondi va muvofaqqiyatga erishdiki, qurgan she'r tilini Rumda ham, Shomda ham, ko'chmanchi xalq ham, mahalliy xalq ham birdek tushunar, birdek sevardi. Keyinchalik esa undan so'ng ijob qilgan shoirlar ham darveshlar ham bu til ochgan adabiyot yo'lidan bordilar va asarlar yozdilar. Devon shoirlari ham shu yo'lni tanlaganlarida edi, hozir turklarda adabiy til muammosi bo'lmas edi.¹⁵ Yunus birinchi navbatda ajnabiy so'zlarni turkchaga o'zgartirdi. Forschalab "gush" demasdan "kulak" deydi, "cheshm" demasdan "göz" deydi, "murg" o'rniga "kuş" deydi. Keyinchalik esa boshqa tildagi so'z birikmalarini turkchaga o'giradi. Misol sifatida Mavlono ishlatgan so'z birikmalari bilan Yunusning taklif qilgan va ishlatgan turkcha so'z birikmalari bilan taqqosini ko'rsatishimiz mumkin.

Mavlono ishlatgan so'z

Yunus Emro ishlatgan so'z

birikmalari

birikmalari

guş-ı can

can kulağı

çesm-i can

can gözü

menzil-i can

can menzili

murg-i can

can kuşu

sirri-i can

can razi

ayine-i can

gönül aynesi

hane-i dil

gönül evi

rah-i dost

dost yolu

ates-i ask

aşk odu

aftab-ru

güneş yuzlu

mah-ru

ay yuzlu

gul-ru

gül yuzlu

¹⁵ Yunus Emre. Ilhan Başgöz. Çağdaş Matbaacılık Yayıncılık LTD Mayıs – 1999 .

Mavlono Jaloliddinning turkcha she'rlari juda kam. O'g'li Sulton Valad ham ko'proq fors tilida ijod qilgan. Asarlarini turk tilida yozganlar Ahmed Fakih, Shayyad Hamza, Dehhani va Yunus Emrodir. Turk tilini mukammal darajada qo'llanganligi tufayli yangi adabiy tilni yuzaga kelishida eng katta hissa qo'shgan esa shak-shubhasiz Yunus Emrodir. Yunusning asl muvaffaqiyati bu tilni tengsiz san'atkorona katta bir qudrat bilan va mahorat bilan qo'llay olishidadir.¹⁶

Yunus Emro tilda yangilik yaratishda yana ham ilgarilab ketib, forschadan foydalanib turkcha ibrolar ishlab chiqdi.

Forscha	Turkcha
Be zaban averden	dile getirmek
Kemer besten	bel bağlamak
Carx zeden	çarh urmak
Dem zeden	dem urmak
Cevlan zeden	cevlan urmek
Cefa kasiden	cefa çekmek
Gussa horden	gussa yemek

Yunus xalq tilida she'rlar bitgani holda arabcha va forscha so'zlarni ishlatishni ham bilgan. Yunus Emro zehi, bahadir, zuht, mulk, mutlak, hicap, zinhar kabi bir qancha so'zlarni qo'llashdan bosh tortmagan.¹⁷ Buning sababi shunday davrda, shunday sharoitda ijod qlish edi. Lekin Yunus chetdan kelgan so'zlarni boshqalarga nisbatan ancha kam ishlatar edi. Ishlatganda ham xalq qo'llaydigan, tushunadigan so'zlarni tanlab

¹⁶ Yunus Emre Divani. Hazirlayan K. Timurtaş. İstanbul, 1972. S. 16.

¹⁷ Yunus Emre. İlhan Başgöz. Çağdaş Matbaacılık Yayıncılık LTD Mayıs – 1999 .

olardi. Shuning uchun xalq Yunus Emroni yuz yillardirki sevib o'qigan, hozir ham sevib o'qiydi. Turk millati Yunusda turklarning o'z tilini va o'z ichki dunyosini topgan.

Yunus Emrodan keyin turk tili xalq turkchasi va yuksak mavqega xos yozuv tili tarmoqlariga ajralib ketdi. Yuksak mavqeyga xos bo'lgan til bora-bora xalq tushunmaydigan bir holga kelmoqda. Yunus Emro tarannum etgan xalq turkchasi esa uning ba'zi izdoshlari tomonidan xalqga taqdim etilayotgan asarlar orqali o'z jozibasini, tarovatini saqlab kelmoqda.

Yunus Emroning turk adabiyotidagi o'rni

Yunus Emro buyuk bir mutasavvuf xalq shoiridir. Uni boshqa xalq shoirlaridan alohida ravishda o'rganish lozim. Yunus baxshi yoki soz shoiri emas. Baxshilar, soz shoirlari keyinchalik va bugungacha oshiq deb atalib kelingan xalq shoirlari she'rlarini soz chalib kuylar edi. Yunusning bunday soz shoirlari bilan aloqasi yo'q. Ahmad Yassaviy orqali XII asrda Turkistonda yuzaga kelgan Turk tasavvuf xalq adabiyoti, XIII asrda Anadoluda Yunus Emro tufayli eng yuksak maqomga erishdi. Keyinchalik uning izidan borgan shorlar juda ko'pchilikni tashkil etdi va maydoni yanada kengayib bordi.¹⁸ Ahmad Yassaviyning "hikmatlar" ga Yunus Emro "ilohiy" lar aytgan. Soz shoirlari esa buni qo'shiq qilib kuylaganlar. Yunusning ilohiylari xonaqohlarda baastalanib aytilgan.

Yunus Emro ilohiylarini aruz vaznida va ko'proq barmoq vaznida yozgan. Aruz vaznida yozilganlari o'sha davrda sevib o'qilgan. Yunus asarni bo'lmish "Risolat-un Nusxiya" nomli didaktik mohiyatli kichi bir masnaviy va ilohiylar jamlangan devondir.

Bir tasavvuf shoiri sifatida Yunus Emro "vahdad-u vujud" (borliqning birligi=panteizm) falsafasini yuzaga keltirgan. Mutasavvuf shoirlar buni islomiy tarafdin o'rganib chiqqan bo'lsalar, islomiy tasavvufni va vahdad-u vujud ko'rinishini adabiyotda eng go'zal namoyon qilgan Yunus Emrodir. Juda ko'p tasavvuf shoirlari yetishib chiqqan lekin, hech kim islom mistisimini Yunus Emrochalik ochiq, sodda, chuqur, samimiy va hayajonli tarzda tarannum eta olmagan. Shu tarafdin u turk tasavvuf adabiyotining juda qudratli va eng buyuk shoiridir.

¹⁸ Yunus Emre Divani inceleme. Dr Mustafa Tatci. İstanbul. 2008. S. 18

Tasavvufning asosi – ilohiy ishqdir. Matasavvuflarga ko'ra yagona vujud bor u ham bo'lsa Allohdir. So'fiylar shu asosida harakat qiladilar, hayot va o'limni, koinotni shu qarashlar bilan izohladilar. Yunus ham mutasavvuf sifatida Alloh, ilohiy ishq, borlik-yo'qlik, hayot va o'lim masalalari ustida bosh qotiragan. Bular va bularga bog'liq ravishda dunyoning foniyligi, faqat ilm bilan haqiqatga erishib bo'lmasligi kabi masalalarga ham to'xtalib o'tgan. Islomiy tasavvuf falsafasini juda sodda, lekin juda chuqur va eng go'zal tarzda tushuntirgan Yunus Emro turk tasavvuf adabiyotining eng buyuk asoschilaridan biri, shuningdek xalq va devon adabiyotilar yoyinki butun turk adabiyotining eng buyuk shoiridir.¹⁹

Yunusning turk tili va adabiyotidagi o'rnini ko'rsatish uchun shuni ayta olamizki u Anadoluda yangi bir adabiyot tilini yuzaga kelishiga eng katta hissa qo'shgan san'atkor, Turk tasavvuf adabiyotiga o'z tamg'asini qo'ygan buyuk insondir. Turk adabiyotining tengsiz va mangu yashaydigan siymosidir.²⁰

Yunus Emroning asarlari

Yunus Emroning ikki asari bizgacha yetib kelgan bular: Risalet-un Nushiyye (Nusxalar risolasi) va devoni. H. 707/M. 1307-1308 yillarda yozgan Risalet-un Nushiyye asari masnaviy shaklda bitilgan didaktik asardir. Boshidagi 13 baytlik qismi foilotun, foilotun, failin, qolgan qismlari mafoilun, mafoilun, failun vaznida yozilgan. 573 baytdan iborat asar ruh va nafs, qanoat, g'azab, sabr, xasislik, akil bo'limlarini o'z iciga oladi. Asarning ohirida yozilgan sanasi ilova qilingan.

Yunus Emroning devoni 300dan ortiq she'rlardan tashkil topgan. Lekin unga yana qo'shilgan she'rlarning miqdori mingdan oshiqdir. Bunga sabab, undan keyin birqancha Yunus taxallusi ostida she'r bitgan shoirlardir. Ularning she'rlari ham devonga kiritilgan. Haqiqiy Yunus Emroning she'rlarini boshqalarinikidan ajratish qiyin emas. Orada tilda, uslubda, ifodada katta farqlar bor. Yunus Emro aksariyat she'rlarini barmoq vaznida yozgan. Oltmishga yaqin she'ri aruz vaznida yozilgan.

¹⁹ Yunus Emre Divani. Hazirlayan K. Timurtaş. İstanbul, 1972. S. 16.

²⁰ Aşık Yunus. Dr.Mustafa Tatçı İstanbul 2008. S. 5

1.1 Shoir ijodida tasavvufiy martabalar va tushunchalarga oid atamalar

To'rt eshik (shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat)

Islom so'fiylari “ darveshlik” martabalarini qirqta maqomda tamomlanishiga ishonganlar va bu martabalarla bog'liq asarlar ijod qilganlar. Bu ishonch Hazrati Alining so'zlariga tayanadi.

Keyinchalik ilk turk so'fiysi Ahmad Yassaviy tariqat maqomini va irshod uslubini “qirq maqom” asosiga ko'ra tartibga keltirgan. Mavzuyimiz bo'lgan maqomlarning Yassaviyda va boshqa ko'plab so'fiylar sistemasida “to'rt eshik-qirq maqom” bilan bog'liq qarashlarini “Faqirnoma” nomli ijodida ta'kidlab o'tgan.²¹ Yassaviy shunday deydi: “Hazrati Ali radiallohu anhu rivoyat qiladilarkim darveshlik maqomi qirqtadur. Agar bilib amal qilinsa darveshligi pok hisoblanadi va agar bilmasa, o'rganmasa, darveshlik maqomi unga harom hisoblanadi. Ul qirq maqomning o'ntasi maqom-i shariatda , o'ntasi maqom-i tariqatda, yana o'ntasi maqom-i ma'rifatda va yana o'ntasi maqom-i haqiqatda bo'ladi.

Yasavviy qirq maqomni shunday tartiblaydi:

Shariat maqomlari: Haq Taoloning borligiga, birligiga, sifatlariga va zotiga imon keltirish, namoz o'qish, ro'za tutish, zakot berish, hajga borish, muloyim suhbatlashish, ilm o'rganish, Hazrati payg'ambar sunnatlariga amal qilish, amr-i ma'ruflar o'tkazish.

Tariqat maqomlari: tavba qilish, pirlar qo'lidan tutish va ularning xizmatida bo'lish, pirining izni ila gaplashish, nasihatlarini tinglash.

Ma'rifat maqomlari: fidoyilik, darveshlikni qabul qilish, har ishga , halol va go'zal istaklar qilish, ma'rifatli bo'lish, shariat va tariqat amallariga rioya qilish, molidunyoga hirs qo'ymaslik, oxiratni tanlash, vujud maqomini bilish, haqiqat sirlarini anglash.

Haqiqat maqomlari: sof dillik, yaxshi-yomonni ajrata olish, ortiqcha luqmaga qo'l uzatmaslik, balki boriga qanoat qilish, o'zini va luqmasini Haq yo'lida , hech kimni

²¹ O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. Nashrga tayyorlovchi N.Rahmonov. – T.: O'zbekiston, 2008. – B.78.

xafa qilmaslik, faqirlikni inkor qilmaslik, sirlarni saqlay olish, shariat, tariqat va ma'rifat va haqiqat maqomlarini bilish va ularga amal qilish.

Yunus Emroga kelib uning devonidagi sha'riy va tasavvufiy tushunchalar, Yassaviyda sanab o'tilgan maqomlardan herch qanday farqli joyi yo'q. Asosan Yunusning suluk tushunchasi "to'rt eshik- qirq maqom" haqiqatiga tayanadi. Yunus bu tushunchani bir qancha baytida to'g'ridan-to'g'ri ifoda etadi. Bu misollar uning tushunchalarini isbotlab beradi:

Kırk bin kırk dört tabakat meşayih evliyalır,

Dört kapıdur kırk makam dem evliya demidür.

Bazi baytlarida o'tilishi kerak bo'lgan manzillarning ismini zikr qiladi:

Şeriat tarikat yoldur varana,

Hakikat ma'rifet andan içerü.

Evvel kapu şeriat geçsa andan tarikat,

Gönül evi ma'rifet, ışk hakikat içinde.

Shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat maqomlari turi bir she'rda ramziy ma'noda ishlatilingan:

Çık dum erik dalına andan yidüm üzümü

Bostan ıssı kakıyup dir ne yirsün kozumı.

Baytidagi koz (yong'oq) to'rt tabaqali bo'lib, to'rt maqomni ifoda etmoqda. Boshqa uzum va olcha so'zlari haqiqat va shariatning muqobili deb bilishimiz mumkin. Uzunning hamma joyi yeyilishi va shirali bo'lgani holda, olchani faqatgina tashqi tomoninigina yeyish muki. Haqiqat ham shariat maqomiga ko'ra shundaydir. Yunus

Emro ichki tomoni tushunarsiz shariatning yashashi dargumondir demoqchi bu bayti bilan.

Yunus Emro yana bir qancha baytlarida to'rt maqom bilan bog'liq tushunchalarni ko'rsatib o'tgan. Bularni bittama-bitta ochiqlab izohlab, Yunus qabul etgan va murojaat qilgan laduniy yo'l va sistemasi, boshqacha ta'bir bilan aytganda Yassaviy va Xoji Bektoshiydan qay darajada ta'sirlanganligini ko'rsatib berish muhimdir deb hisoblayiz.²²

Shariat: Yunus Emroga ko'ra shariat haqiqatga ochilgan ilk qadamdir. Haqiqatning cheksiz dengizida sayr qilish uchun shariat kemasiga minish kerak. Ya'ni haqiqatga erishish uchun shariat kabi bir vosita kerak bo'ladi:

Şer`ile hakikatün vafını eydem sana

Şerı`at bir gemidür hakikat deryasında.

Shariat haqiqat qosh'ning himoyachisidir. Shariat ahlidan bo'lmaganlar, toat-ibodat qilmaganlar, pirlaridan duo olmaganlar la'natlanganlar. Shariatni bilgan kishi kecha va kunduz toat –ibodat qiladi. Shariat sur'atdir, haqiqat esa o'zlik, sur'atdan o'zlikni topmoq lozim.

Tariqat: Yunus Emroning fikriga ko'ra haqiqat yo'lining ikkinchi eshigi tariqatdir. Tariqat shariatdan yuqoriroq bo'lgan bir maqomdir. Yunus tariqat tushunchasini “ Haq yo'li, to'g'ri yo'l” shaklida tarkiblarga ajratgan holda “ guruh, karvon, do'st bog'i” shaklidagi majoziy so'z va tarkiblarda ham aynan bir ma'noda keltiradi. Shoir bir gapida tariqatni majoziy ma'noda “ qozon” ga o'xshatgan. Darvesh bu qozonda pishadi va komillikga erishadi. Ahmad Yassaviy aytadi:

Shariatnin salohini kiymaguncha,

Tariqatning Buroqig'a minmaguncha,

Jazbu junun olamig'a kirmaguncha,

²² Bu mavzuda qarang. Abdulboqiy Gulpinarli, to'r eshik moddasi, Tasavvufdan tilimizda o'tgan atamalar va maqollar. B. 101-103

Haqiqatni maydonga kirs

Har bir tariqatning boshida bir murshid (avliyo, pir) bo'ladi. Yunus:

N'itdi bu Yunus Pirlar etegin tutdi,

Allah go'elum neyler n'itdi bir to'gru yola gitdu

Baytida, to'g'ri yo'lga kirib, pir etagini tutganini aytadi. Haqiqatga erishish uchun Haq yo'lni tanlash, pirlardan duo olmoq kerak. Shu misra va baytda shu haqida gap boradi:

Alun evliyanun elin to'g'ri varun Hakk'un yolun.

To'g'ri yola gitdunise er etegin titdinise,

Bir hayir da itdunise birine bindur az degul.

Tariqat ahlining ko'nglida kibr va gina bo'lmaydi. U har xil ig'volardan xoli bo'ladi. Bu yo'l onglilik yo'lidir. Manzili yiroq, mushkiloti ko'pdir. Nihoyat tariqatning eng muhim sharti bu piriga butunlay taslim bo'lishdir:

Sheyh-i kamil hizmetinde farig olma iy Yunus,

Kulluk itmek pirine erkanidur ashklarun.

Ma'rifat: Ma'rifat Allohni tanimoqlikdir. Qalbning Haq ila yashashi va tirik bo'lishi. Yunus ma'rifat maqomini qiymatda tengsiz bir javohirga o'xshatadi.²³ Ma'rifat javohiri jon va bosh evaziga qo'lga kiritiladi. Ma'rifat Haqning quliga baxsh etgan bir "dasturxonidir". Bu dasturxondan faqirlarga yemish ulashgan kishilarning ko'ngi'llari ma'rifatga to'ladi²⁴:

Ma'rifet gonul shehri makamın bulur fakrı,

Bahrı gerekdur bahrı bu ma'rifet içinde.

Haqni tanigan yo'lg'on so'zlay olmaydi. Yunusning ushbu gaplari ma'rifatni ta'riflaydi:

Turmiş ma'rifet söyler erene Yunus Emre'm,

²³ Hucviri. Keşful- Mahcub. Istanbul 1982 s.397-410

²⁴ Abdülhakım Arvası. Tasavvuf bahçeleri Istanbul. 1983. s. 84

Yol eriyle yoldadur yolsuza yoldas deęül.

Haqiqat: Shariat haqiqatning zohiri; haqiqat shariatning botinidir. Yunus baytlaridagi o'rtaga chiqqan fikr shu tizimda boradi.

Shariatsiz haqiqat maqomiga erishib bo'lmaydi. Haqiqat cheksiz bir daryodir. Bu daryoda shariat kemasi bilan sayr qilinadi; lekin haqiqat maqomiga erishish uchun kemadan chiqib daryoga g'arq bo'lmoq lozim:

Hakikat bir denizdür şeriyatdur gemisi,

Çoklar gemiden çıkup denize dalmadılar.

Haqiqat xuddi ma'rifat maqomi singari bir xazinaga qiyoslanadi. Haqiqat so'zining o'zi sirlidir. Bu maqom faqatgina oshiqlik daryosida bo'ladi. Haqiqat ahliga ko'ra har narsani ikki tomoni bor. Misol uchun: shariat nazari bilan boqqan kishi dushmani tashqaridan qidiradi, haqiqat nazari bilan boqqan kishi dushmani o'zidan qidiradi:

Hakikatde bakarisan nefsun sana düşman yiter,

Var imdi ol nefsunile vuruş tokuş savaş yuri.

Bu maqom bir shahardir. Bu shaharning sultoni "Haq" dir. Haqiqat shahrining yetti eshigi bor. Bu eshiklar yetti martabaga ishoratdir. Haqiqat maqomi uchun Yunus Emro "haqiqat to'nini kiymoq" iborasini qo'llaydi:

Hakikat iskdur iyan görsün ol sebih beyan,

Hakikat dönin giyen agir hil`at içinde.

Haqiqat so'zini sharhlar bilan anglab bo'lmaydi. Hatto, u haqida to'rt kitobni o'qib chiqqanlar ham uni tushunishga osiydirlar. Zero, uni o'qib ma'nosini tushunmaslikni foydasi yo'qdir. Haqiqat ahli qanoatni o'ziga yor qilib, nafsini jilovlay olgan. Haqiqatga erishgan komil insonlarning jonlari huzur topadi:

Hakikata irenler hakikati bulanlar,

Na bahtludur canlari hep mahabbet icinde.

Seyr u Suluk:

Sayr ko'rmoq, suluk esa bir yo'ldan ketmoq, bir narsani ichiga kirmoq deganidir. Bir tasavvuf istilohi sifatida suluk " Allohning vasliga erishish uchun ahloqini go'zallashtirmoq" dan iboratdir. Suluk ahliga " solih", solihlikni tanlagan yo'lga va uslubga "maslak" manziliga yetgan solihga esa "vasil" nomi beriladi.²⁵ Yunusning "suluk" tushunchasi " nafsi tasfiya" usuliga tayanadi. Yunus ba'zan solihni qushga o'xshatadi. Tabiiyki, uchish suluk uchun majoziy ma'noda qo'llaniladi. Qushning uchishi qanotiga bog'liq bo'lsa, solih insonni yo'ldoshi uning ishqiy va botiniy muhabbatidir. Yunusning majoziy fikrlaridan yana biri suluk bu "qanoatlanib uchmoq" deganidir.

Kesildi nefsi basi oldu fisk u feshad işler kaldı,

Hak`dan bana nazar oldu kanatlanup uçar oldum.

Suluk so'fiylarning Merojidir. Har bir so'fiy bu ma'naviy yo'lni o'z nafsida yashab o'tadi. Yo'l yiroq, qorqinchli sarguzashtlari bordir. Komillikga erishmoqchi bo'lganlarning yo'llari nihoyatda tordir.:

Erenlerun yollari inceden inceyimis,

Suleyman`a yol kesen şol bir karincayimiş.

Yakin:

Yakin ochiq, qat'iy va shubha qilinmaydigan bilimdir. Uning uch martabasi bordir. Ilmul yaqin, ilmiy va aqliy dalillarga asoslanib erishilgan bilimdir. Aynul yakin mukoşefe yoli bilan qo'lga kiritilgan bilimdir. Haqqa yaqin mushohada va bir zot nazoratida yashab qo'lga kiritilgan ilmdir. Ilmal yaqin aql va tafakkur bilan qo'lga kiritilgan bilimdir. Aynal yaqin va haqqa yaqin bilimlar solihlar va valiylarga xos bilimdir. Bu bilimlarning joyi esa ko'ngildir.

²⁵ Et-Tehaveni. Muhammed El-A'la. Keşşafu Istilahatıl Fumen C. II. Kalkuta 1863. slk maddesi. Suat El-Hakim. Ibnul-Arabı sözlüğü. Istanbul – 2005 .s.546.

Yunus Emro ilmiy bilimdan soʻz yuritmaydi. U butunligicha Haqni bilmoq.Unga erishmoq va Haqda boʻlmoq maqomlari boʻlmish aynal yaqin va Haqga yaqindan bahs yuritadi:

Ayne`l-yakin gorupdur Yunus Maecnun oluptur

Bir ile bir olupdur Hakke`l-yakin icinde

Hayot ekan haqni bilmagan, Haqni eslamagan inson tirik murdadir. Insonlarning vazifasi Allohni bilish va bu yolda fido boʻlishdir. Oʻrganmoqlikdan maʼno Haqni bilishdir. Bundan tashqari ishlar quruq mehnatdan iboratdir. Ha, Yunusning fikricha, ilmdan asl murod ham pirovardida oʻzini, oʻzlikni bilishdir:

Ilim ilim bilmektir,

Ilin kendin bilmektir,

Sen kendini bilmezsen

Bu nice okumaktır.

Mushohada

Mushohada koʻz bilan koʻrish va tomosha qilish maʼnosidadir. Tushuncha sifatida esa Allohni qalb koʻzi orqali koʻrmoq maʼnosida keladi. Mutasavvuflar Allohni dunyoviy hayotda ham koʻrish mumkin ekanligini aytib oʻtganlar.²⁶ Yunus Emro ham bu soʻzlarni maʼqullaydi:

Kamu alem umid tutar ahirette goʻrem diye

Yunus eydur derviş olan bunda Hakki buldu gider.

Alloh Taoloni tanadagi koʻz bilan emas qalb koʻzi orqali koʻrish mumkin:

Dost yuzune bakmaga key safa nazar gerek

Dostila bilişmege can gozu bidar gerek.

²⁶ Talat koçyiğit. Kurʼan ve Hadiste Rüyeyet Meselesi Ankara. 1984. s.7.

Tark:

Faqr maqomiga erishmoq uchun “tark” martabalaridan o'tmoq kerak. Yunusning baytlarida tark maqomlari keng tarzda izohlab berilgan.²⁷ Quyida Yunus ishlatgan tark so'zi bilan bog'liq so'z birikmalari:

“Dunyoni tark etish, jahonni tark etish, jonni tark etish, bilganlarini tark etish, vujudni tark etish, ikki jahon tarki, mol-mulkni tark etish, o'zligini tark etish, sevganlarini tark etish, shaxsiyatini tark etish, butun tashvishlarini tark etish” va boshqalar. Dunyoni, aniqrog'i – dunyo muhabbatini tark etish ibodatning boshlanishidir. Ishqqa muhtalo bo'lgan, manzilga yetmoq uchun dunyo sevgisini tark etmoq kerak. Bu haqda Yunus Emro shunday deydi:

Dunyayi elden birak, olmagil Hak`dan yirak,

Sermaye kendusu olmiş varliklar yuyanlara.

Darvesh bunday maqomni boshidan o'tkazar ekan, jamiyatdan yiroqlashib ketmaydi. Tark etish jamiyatdan va tabiatdan voz kechish degani emas. Darvesh hamma qatori jamiyat orasida yashaydi. “Dunyoni ko'r, sayr qil, ichiga kir, ammo ehtiyot bo'l – dunyo sening ichingga kirmasin”²⁸

Sabr:

Sabr²⁹ nafsning qiyinchiliklarini yengib o'tishlikdir. So'fiy butun balolarni imtihon sifatida qabul qiladi. Sabr yo'lda davom etish uchun kuch bag'ishlaydi. Qur'onda ismlari keltirilib o'tilgan barcha Payg'ambarlar juda ko'plab musibatlariga duchor bo'lganlar, boshlariga kelgan har balolarga sabr qilib, chidab zafar qozonganlar. Darvesh ham xuddi payg'ambarlar kabi boshiga kelgan kulfatlarni sabr bilan yengishi kerak. Bu hususida Yunus Emro shunday deydi:

Miskin Yunus sabr eylegil bu dunyanun zahmetin,

²⁷ Bkz. Mustafa Tatçı . La – mekan kavmi olmak veya Tasavvufta terk. Keşkül . İstanbul. 2005 s. 108-111

²⁸ Umar Faruq saydo al- Jazariy. Tasavvuf sirlari. T.: “Movarounnahr”, 1997. B. 32.

²⁹ Ragıb Ebül – Kasım Huseyin. Mısır. 1961

Durlu cefaya katlanur, sen sultana iren kişi

Yunus juda ko'p baytlarida sabr qilgan oshiqlarni Ayyub Payg'ambarga o'xshatadi:

Eyyublayin sabr eyle Ya`kublayin çok ağla,

Yunus-sifat sen dahi Ken`an`a irişince.

Nazar:

Murshidi komilning solihga ma'naviy hayot baxsh etuvchi, fayz va quvonch bag'ishlovchi qarashiga, boqishiga nisbatan ishlatilindi. Yunus nazarni "ko'zda" ekanligini ta'kidlab o'tadi:

Yunus er nazarinda taze guller acilmis,

Sen gerçek bulbulisen nazarda o'tmek gerek.

Munojot:

Oshiqning yashirin tarzda, ruhan va qalban Allohga yolvorishidir. Qalbning nolalari oshiq bilan ma'shuqni bir-biriga yaqinlashtiradi. Yunus juda ko'p baytlarida "munojot" qilgan oshiq timsolida keladi. U "Haq bilan doim ijobat bo'lur munojaotimiz" deya yolvorishlar hech ham tugamasligi karakligiga ishora qiladi. Oshiq munojot qilishi uchun aniq bir makon qidirmaydi. Munojot Allohga uzatilingan qo'ldir.³⁰ Unga javob qaytishi muqarardir. Munojatning eng maqbul vaqti sahar vaqtidir. Yunusning bir baytida shunday deyilgan:

Işit sözüüm ya sagir ta terezun gele agir,

Yalvar Çalab`una cagir tanla seher vaktinda tur.

Riyozat:

³⁰ Qiyoslang: umid birla ko'taribmiz bilakni,
Xudovando qabul ayla tilakni
(So'fi Ollohyor)

Riyozat oz yeyish, oz uxlash, kam gapirish sharti bilan doimo zikr , tafakkur va ibodatda bo'lishlikdir. Hirs-u havodan, jon qafasidan qutilmoqlik uchun nafsni tiymoq kerak. So'fiy doimo riyozat ichida bo'lmog'i lozim:

Dayim riyazet cekub, halvetlerde diz çokub,

Hak diydari eserin gormeyen aşik midur., -

deydi Yunus Emro. Ya'ni riyozat ichida bo'lsang albatta Haqning diydoriga yetishasan demoqda.

Sidq:

Sidq tushunchasi xulqida va o'y, fikrida "to'g'rilik" ni talab etadi. Ilohiy bilim va omonat faqat sodiqlarga berilishi mumkinligini ta'kidlab, Yunus o'z nafsiga shunday xitob qiladi:

Yunus ozun yalvarursan sidkila yola girursen,

El acup tevbe kilursan mahrum kalmayasun bigi.

Sidq butun qarashlarni, xotiralarni, shubhalarni, qalbdagi ikkilanishlarni yoqib yo'q qiladigan otashdir. Yunus baytlarida sidq bilan imon barobar tilga olinadi.

Ehson:

Ehson muridning murshidga, Allohning qulga beradigan ma'naviy tuhfasidir. Yunus uni baytlarida quyidagicha ta'riflaydi:

Bu olamning sultoni bor, hammaga ehsoni bor,

Sultoniga birlashganning yo'g'i borga o'xshar.

Valoyat:

Valoyat dostlik va yaqinlik moqomidir. Yunusning fikricha valoyat bu yo'qlikdan borlikga tomon ildamlashdir. To'rt eshik, qirq maqom va bir yuz oltmish manzildan o'ta olgan kishigina valoyatga yetishadi:

Dort kapudur kirk makam yuz altmish menzil var,

Ana irene açilur velayet derecesi.

Oshiq qanchalik kamtarin bo'lsa valoyati shunchalik ortadi. Murshid valoyat ilmining sohibidir. Bu muqaddas omonat shunga loyiqlarga beriladi:

Işdur bunca avazlar didugum ma`ni so`zler,

Tabduk Yunus`i go`zler bu velayat içinde.

Qanoat:

Qanoat yashash uchun zarur bo'lgan ehtiyojlardan tashqari qolgan boshqa butun nafsiy orzu va hayvoniy istaklardan, yeyish, ichish va yashayotgan uy uchun isrofgarchilik qilmaslik ya'ni yeyish uchun yashamasdan, yashash uchun yeyish demakdir.³¹ Nafsig qul bo'lib qanoat sohibi bo'lmagan kishi sargardon bo'ladi:

Qanoat yo'rigidan agar sen yurmasang,

Nafsga qul bo'larsan sargardon bo'lib.

Qanoatni tanla, yurma nafs yo'rig'idan,

Yetishasan haqiqatga solih inson bo'lib.

Nafs ajdarhosiga qanoat quroli bilan bas kelish mumkin:

³¹ Necmiddin-ı Kübra. Tasavvuf hayat. Hazırlayan Mustafa Kara. İstanbul. 1980 s. 51

Nefsumun ejdahasi dondu bana hami itdi,

Kana`at hay dimezse hakikatdur yir indi.

Qanoat ayni paytda solihni butun nafsiy orzularidan va harakatlaridan qo`riqlaydigan bir maqomdir. Qanoat libosiga o`ralgan inson salomatdur:

Kana`at hirkasi icre selamet basini cekdum,

Melamet gömlegin bicdum arif olup giyen gelsun.

Halvat:

Halvat zohiran xalq bilan, botiniy Haq bilan bo`lishlikdir. Yunus Emro so`fiylarning yetti nishonlaridan biri “ halvat” ekanligini aytib o`tadi. Halvatga yetishib mashuq ila birga bo`lmoqlik uchun yetti eshikdan o`tmoqlik kerak.

Halvat yolg`izlikda och va suvsiz zikr bilan mashg`ul bo`lish ma`nosida ham keladi. Bu ma`noda kelganda halvatning o`ziga xos qoidalari bor. Bu borada Yunusning shunday bir bayti bor:

Doim riyoziyat chekib, halvatlarda tiz cho`kib,

Haq diydorin ko`rmagan oshiq bo`larmi ayting.

O`n sakkiz ming olam:

O`n sakkiz ming olam tushunchasi ramziy timsoldir. Bu ifoda butun yaratilgan olam uchun ishlatilindi. Yunus o`n sakkiz ming olamni Allohga yetishish orzusida yaratilinganini aytadi:

Muradi on sakkiz bin `alemin sen,

Bu gaflet pes sana sendadur indi.

Allohga yetishgan valoyat ahli, o'n sakkiz ming olamdan o'tib, butun borliq kategoriyalaridan haqiqiy ilohiy olamga yo'l oladi. Yunusning ushbu bayti ramziy o'n sakkiz ming olamga ishoradir:

Adimum atdum yidi dort on sekiz binden ote,

Dokuzi yolda koyub sah emrine ferman olan.

Jon ko'zi:

Jon ko'zi Allohning jamolini ko'rgan "ichki ko'z" (qalb ko'zi) dir. Bu ko'z nafs ustidan g'alaba qozonilsagina ochiladi:

Dost yuzine bakmaga key safa nazar gerek,

Dost ila bilismege can go'zi bidar gerek.

Yunus jon ko'zi ma'nosida keluvchi "botiniy ko'z" va "qalb ko'zi" kabi tabirlarni ham o'z baytlarida qo'llaydi. Jon ko'ziga muqobil ravishda esa yuzdagi ko'z yoki o'zga ko'z do'stni ko'ra olmaydi. Chunki yuzdagi ko'z zohiriy ko'zdir:

Can gözile bakan görür Yunus gözile gördüğün,

Yoksa yaban gözi ile kimseneye ne söyleyem.

Jon qulog'i:

Jon qulog'i ma'rifat va haqiqat sirini eshituvchi quloqdir. Jon qulog'i bilan bir qatorda ko'ngil qulog'i tabiri ham shu ma'noda ishlatiladi:

Ey yoronlar siz bu so'zni tinglang ko'ngil qulog'i ila,

Jon dudog'i kerak xolis birlik sharobin totmoqqa.

Nafas:

Nafas tabiiyki hayot manbayidir. Oshiq komillikga yetmaguncha o'likka o'xshatiladi.

Keyin bu o'lik murshidining hayot baxsh etuvchi nafasi ila hayotga qaytadi. Nafas murshidning oshiq'larga ilohiy hayot baxsh etuvchi so'zlari, duosidir. Yunus ham bir baytida laduniy mohiyatdagi she'riga nafas nomini bergan:

Didum ish bu nefesi asiklar hukmiyile,

Bahilliksuz er gerek bir karara turasi.

Muhabbatulloh:

Muhabbatulloh Alloh sevgisi deganidir. Bu sevgi jondan yana chuqurroq bo'lgan sevgidir.

Haqni sevmaganlar jonsiz bir sur'atga o'xshaydi. Haqiqatdan ham Allohni sevuvchilar o'zligidan kechgan insonlardir:

Yunus eydur dimegil dosti gerchek severin,

Dosti gerchek sevenler benligin elden kodi.

Allohni sevmaydiganlarning iymoni tosh kabidir. Ma'shuq sevgisi bilan qalbi ishqqa to'lgan oshiq qayg'ularidan ozod bo'lib, ko'nglidan g'ami ariydi. Yunus Allohni sevgan kishilarning ham sevilishi mumkinligini aytadi:

Ma`shukani kim sevse lazimdur ani sevmek,

Dostumuzun dostuna yad endise ne layik.

1.2. Tariqat va u bilan aloqador tushunchalar.

Murshid:

Murshid (arabcha – yo'l ko'rsatuvchi) tasavvufda tariqat odoblaridan saboq beruvchi pir, shayx va ustozdir. Ustun xususiyatlari bilan haqiqiy murshid Hazrati Muhammaddir. Muhammad Payg'ambarga voris bo'lgan komil insonlar butun ahloqi va ilmiy xususiyatlari bilan irshotga munosib kishilardir.³² Komil inson bo'lgan murshid Allohning yer yuzidagi xalifasi o'laroq qullarni Haq tomon yetkazuvchi yo'l boshchidir. Solihlar faqatgina shu yo'ldan Haqqa yetishadilar. Yunusning "ulug'lar etagidan tutmoq" yoki " oy yuzli gul yuzli yorga dost bo'lmoq" kabi iboralari bilan ifoda etgan ma'naviy bog'liqlik, uning bir murshidga murojat qilganligini ko'rsatadi. Yuqorida murshidning xususiyatlari haqida sanab o'tdik. Bu murshidlarga berilgan xususiyatlarning barchasi Yunus Emroning baytlarida ifoda qilingan. Baytlaridagi murshid tushunchasi bu so'z bilan birga ustoz, ho'ja va shayx kabi so'zlar ham ifoda qilingan. Bundan tashqari murshid so'zi majoziy ma'nodagi ba'zi so'zlarda va so'z birikmalarida ham qo'llangan. Bularning ba'zilarini misol sifatida ko'rsatamiz: " Ishq egasi, oy yuzli yor, yo'l boshlovchi, lochin, sulton, haqiqiy oshiq, gul yuzli yor, shoh, shohlar shohi, Layli, Shirin, dil, dost, ustoz, Ibrohim Atham, Iso, soqi, jonlar joni, Hizir, yor do'st, ustozlar ustoz, oshiqlarning kitobi, bo'stonning boshi, Hak eshigi, yo'ldosh, himmat kaliti, murabbiy, do'kondor" va boshqalar.

Yunusning fikricha murshid yuksak xususiyatlar sohibidir. Ilmi ila boshqalarga ustoz va murabbiydir. Yuzi nurli oy, sham, gul va oynadir. Suhbatining maroqliligi jihatidan og'zi shirin aslga o'xshatiladi:

Aşik oldum sol ay yüze nisar oldum bal agiza,

Nazar kildum kara göze siyah olub kasa geldum.

Murshidning hayot baxsh etguvchi nafasi Isoga o'xshaydi. O'lik ko'ngillarni tiriltiradi. Maqomi Ibrohim Atham maqomidir. Ko'rganlar bosh egarlar. Go'zalligi va haybati jihatidan Yusuf Payg'ambarga o'xshaydi. Bu dunyo shahrining sultondir.

³² Bkz. Yaşar Nuri Öztürk. Tasavvufun Ruhu ve tarikatler. S. 62.

Darvesh murshidning ostonasini Ka'ba deb biladi. Darvesh so'zining hikmati ham shundan kelib chiqqan. Nurli ko'ngillarda namoyon bo'ladi. Darvesh qayerga boqsa murshidining nurli yuzini ko'radi. Darveshlik ulug'lar etagidan tutishdan boshlanadi. Ulug' kishilar haqiqiy yo'l boshlovchilardir. Darveshni kufur, shirk va dunyo balolaridan murshid qutqaradi. Murshid himmat sohibidir.

Nazari ochilgan gulga o'xshaydi. Bu gul ilohiy sirlarning iforini taratadi:

Yunus er nazarinda taze guller acilmis,

Sen gercek bulbulisen nazarda otmek gerek.

Yuzi quyoshdan toza, o'zi gavhardir. So'zi shakardan shirindir:

Gavhardir sening o'zing, quyoshdan toza yuzing,

Shakardan totli so'zing, har kim qarab uyaldi.

Murshidi komilning dudog'i (suhbati va fayzi) tinmay oqayotgan, toza chashmaga qiyoslanadi. Tolibining ko'ngli ham bo'sh bir idish kabidir. Bu ko'ngil murshidning suhbat va fayzi bilan to'ladi. Yunus chashmalardan idishini to'ldirmagan ya'ni komillardan fayz olmagan insonlarga shunday deydi:

Çeşmelerden bardagun toldurmadan korisan,

Bin yil anda turursa kendu tolası degul.

Murshidning dargohi va huzuri ko'pincha gulzorga, bog'ga o'zshatilinadi. Bu o'xshatishlar uchragan baytlarda oshiq darvesh bulbulga qiyoslanadi. Murshid darveshni dunyo tuzog'idan qutqaradi. Yunusning bir baytida Qur'on haqiqiy murshid ekanigi ta'kidlanadi:

Kaf Tagi zerrem degul ay u güneş bana kul,

Aslum Hak`dur şek degul murşiddur Kur`an bana.

Yunus taqlitchi va yolg'onchi murshidlar uchun "egri yor" so'zini ishlatgan.

Gordun yarun egridurnen varisa vir kogil,

Ululardan meseldur işitdugun varisa.

Bir solih ikki murshidga ko'ngil bera olmaydi. Yunus o'z baytida shunday deydi:

Boshqa bog'ga kirmagil, o'zga gulga tegmagil,

Bor o'z ma'shuqingga bog'ingda qo'l berib yur.

Yunusning murshid ma'nosida eng ko'p ishlatgan so'zilardan birisi "shayx" so'zidir:

Yunus eydur ol melamet seyhligiasikliga sat,

Aşık da n`ister eyu ad bed-nami hoşdur aşkin.

Shayh so'zi Yunusning baytlarida ikki ma'noda zikr qilingan. Lekin oxirgi yuz yillarda bu tushuncha zohid ma'nosini sekin-asta yo'qota borgan, murshid so'zi uchun ishakilina boshlagan. Quyidagi misollarda shayh so'zini murshid ma'nosida kelganligini ko'rishimiz mumkin:

Varam kul olam şeyh işigine,

Aba dkinem yuz bin pareden.

Dunyo sevgan bo'lolmas darvesh, darveshligi bo'lmas qabul,

Darveshlikdan qochganlarning shayhi biling shayton bo'lur.

Quyidagi baytda esa Yunus murshid-i komil uchun "Haq eshigi" ta'birini qo'llagan.:

Evliyadur Hak kapusi Yunus durur kapucisi,

Işkila geldi bu yola işki idindi hem turak.

Murshid uchun "haqiqiy eran" sifati ham qo'llanilingan:

Haqiqiy eranga boraylik, Hakning xabarin so'raylik,

Yunus Emroni olaylik, kel dostga ketaylik ko'ngil.

Murshid yo'l ko'rsatuvchidir:

Qorong'u tunlar bo'lsa, yo'llar hech yorishmasa,

Yo'l boshchim bordir men nega qo'rqaman.

Murshid ulug' kishidir:

Ger uluya irduniyase suret nakshi nendur senun,

Ma'niye yol buldunisa ish bu dunya nendur senun.

Murshidning murabbiyga qiyosini quyidagi bayt orqali ko'rishimiz mumkin:

Gelmek gerek terbiyete kamu bilduklerin koya,

Marebbiysi ne dirise pes ol ani dutmak gerek.

Yunusning baytlarida murshid tushunchasini anglatuvchi ba'zi iboralar ham uchraydi, bir nechasini misol sifatida ko'rsatamiz:

“Do'st etagini tutmoq, ulug'lar etagini tutmoq, dost eshigida yotmoq” va boshqalar.

Darvesh:

Darvesh so'zi forschadan olingan bo'lib hech nimasi yo'q, yo'qsil odam ma'nosida keladi. Tasavvufiy atama ma'nosida esa bir tariqatni egallagan kishidir.³³ Arab qoidalariga ko'ra forschada Darvesh, darvishe tarzida bir butunlikda ham aytiladi va darveshlar ma'nosida keladi. Tasavvufdagi ma'nosi esa o'zligidan kechgan, haqiqiy dunyo sohibi

³³ Abdülhakı Gölpinarlı. Tasavvuftan dilimizr geçen deęimler ve atasözleri. Istanbul. 1972

bo'lgan, o'zini Alloh yo'lida xizmat qilishga bag'ishlagan kishilarga nisbatan aytiladi. Darveshlik ta'limotining asosini zikr tushish orqali Alloh bilan yaqinlashish va uning roziligiga erishish mumkin degan g'oya tashkil qiladi. Darveshlik bir murshidga taslim bo'lishdan boshlanadi. Har bir darvesh o'z murshidini boshqalardan ustun deb biladi. Darveshning sarmoyasi sabr, qanoat va miskinlikdir. Yunus o'z murshididan so'z ochar ekan shunday deydi: “ Yunusdir darveshlar quli Tabduq kabi sarvari bor” . Bundan Yunus Tabduq Emroning darveshi ekanligi ko'rinib turibdi. Yunusning fikricha bir darvesh uch holatni boshidan o'tkazmog'i kerak: sidq, tavba va zikr. Bu mavzuga oid bayt ham bor:

Yunus özün yalvarsan sidkila yola girursen,

El alup tevbe kilursan mahrum kalmayasin bigi.

Darveshlik yo'li ishq yo'lidir. Lekin bu yo'l juda mashaqqatlidir. Haqni topishni istaganlar nafsini ham darvesh qilishlari lozim. bu haqda Yunus Emro quyidagi fikrni aytib o'tgan:

Hakk`i bulmak isteyenler eylesun nefsinı dervis,

Çalap bize murşit vermiş, derviş olabilsem derviş.

Darveshlar qaramasdan ham ko'ra oladilar. Suhbatdoshini so'zlaridan emas nigohidan anglab oladi. Haq yo'lining Mansuridir, anal-haq sirining yetakchisidir. Butun borlig'idan kechgan. Ko'ngli vahdat ummonidir. Doimo hushyordir. Ko'ngil sultonining gadosi, ishq dengizining g'avvosidir. Haqni izlagan sayyohdir. Darvesh to'lin oy va har kuni ko'kka chiqqan quyoshdir. Dostining gul bog'ida bulbuldir. Yunusning bir baytida darvesh ochilmagan g'unchaga va eranlar suhbatidan so'ng ochilib, nafis ifor taratgan gulga o'xshatiladi:

Erenler sohbetinde deste kizil gul idim,

Acildum ele geldum soldumisa ne oldu.

Dini va iymoni bor odam darveshlarni hech qachon xor qilib qo'ymaydi. Olamdagi butun mavjudod darveshlarni ko'rish uchun harakat qiladilar. Oy va yulduzlar ular bilan suhbat qursam deydi. Farishtalar darveshlarning ismini aytib zikr qiladilar. Darveshlarni ko'rganlarni tillari zabun, aqllari lol qoladi.

Pir:

Pir so'zi forscha bo'lib “ keksa” degan ma'noni anglatadi. So'fiylik an'anasida tariqatlarning oliy rahnamolari. Shuningdek har bir murid o'z murshidini ham pir deb atagan. Aholi orasida pir tushunchasi avliyo, ma'lum bir hunarning asoschisi ma'nosida ham ishlatiladi. Bu tushuncha Yunusning beshta baytida tilga olingan:

N`itdi bu Yunus n`itdi bir togru yola gitdi,

Pirler etegin tutdi Allah go'relum neyler.

Yunus pirlar etagidan tutgan, pir maqomida foniy bo'lgan bir darveshdir.

Baba:

Baba shayxning sifatlaridan biridir. Yunus bir baytida Tabduq Emroni “Baba Emro” degan:

Vardugumuz illere sol safa go'nullere,

Baba Tapduk ma`ninin sacduk elhamdulillah.

Zikr:

Zikr so'zi arabcha bo'lib yodga olish, eslash ma'nolarida keladi. Tariqatlarning asosini zikr tashkil etadi. Tasavvufda Allohni yodga olish bilan bog'liq marosim hisoblanadi. Ilohiyotchilar Allohni yodga olish zarurligini Qur'oni Karimning "Allohni zikr qilish bilan qalblar orom olur" degan oyat bilan bog'laydilar. Qur'onda yetmish surada va ikki yuz olti joyda zikr so'zi ishlatilgan.³⁴ Zikr ovoz chiqarib yoki ovoz chiqarmasdan qilinadi. Ovoz chiqarib zikr tushish O'rta osiyoda ham keng tarqalgan. Bunda bir guruh so'fiylar avval davra qurib o'tiradi, bir kishi avval muayyan iboralarni ma'lum ohangda o'qiydi, unga ma'lum musiqa asboblari jo'r bo'ladi. Bora-bora kishilar o'rnilaridan turib o'ziga xos harakatlar qila boshlaydilar. Zikr tushayotgan o'zligini unutadi. Allohdan boshqa hech kim va hech narsani yodga olmaydi. Zotan so'fiylar uchun zikr tushishdan asosiy maqsad Allohga yaqinlashishdan iborat. Zikr qilishning muayyan vaqti yo'q. kechayu kunduz zikr qilsa bo'ladi. Yunus o'zining doimo zikr ichida bo'lganligini ta'kidlab o'tadi. Yunus zikr ahlining yaxshi qarshilanishini bir baytida keltirib o'tgan:

Aceb midur aşik kişi maşukini zikr eder,

Işk başından asacagiz gönlini zar itse gerek.

Yunus yana bir qancha tariqat bilan bog'liq tushunchalarga to'xtalib o'tgan. Bular: samo, hirka, aba, destar, toj va boshqalar. Bularning barchasinin o'z baytlarida chiroyli tarzda sharhlab bergan.

³⁴ Geniş bilgi için bkz. Mahir ız Tassavuf. S. 145-151.

1.3. Tasavvufda Alloh sevgisi va Alloh so'zining bir qancha ko'rinishlari.

Alloh – (arabcha “al-iloh” – ilohiy kuch turkiy xalqlarda xususan o'zbeklarda Tangri, fors-tojiklarda Xudo, Yazid). Olloh – islom dinida butun mavjudodni yaratgan, oily, ilohiy kuch, Xudoning nomi. Odatda Allohga Taolo (ulug', oily) Taboraka va taolo, Jalla jalalahu, Karim buzurgi, Parvardigori olam kabi sifatlar qo'shib aytiladi. Islom diniga binoan Alloh – yakkayu yagona Xudo olamning yaratuvchisi va qiyomat kunning egasi. Qur'oni Karimda Allohning yagonaligi va buyukligi juda ko'p bor ta'kidlanadi. Alloh haqidagi ta'limot musulmon dini va ilohiyot fanining asosi bo'lib qoladi.

Yunus Emro, “vujud birligi” ga ishongan bir so'fiy o'laroq, asarlarida Allohning borligi haqida teran fikrlarini bayon etgan. U Allohni chin do'st deb biladi. Alloh faqat ko'ngillarda yashaydi, deydi. Ko'ngilga quloq tutgan inson Allohga yetishadi:

Ben gelmedum da'vi için benim işum seviyicun,

Dostun evi gönüllerdir gönüller yapmaya geldum.

“ Do'stga borar yo'l ko'ngillar orqali o'tar”. Tangri ko'ngilda namoyon bo'ladi deyishining boisi ham shudir. Bu misrada Yunus Allohni do'stga qiyoslaydi.

U o'z she'rlarida Alloh so'zini bir qancha ko'rinishlarda ifodalagan: “Allah, Hak, Rahman, Zahir, Batin, Evvel, Ahir, Rezzak, Kadir, Zul-Celal, Cemal, Halik, Hayy, Cebbar, Basir, Kayyum, Gani, Kerim, Nur, Mennan, Kahhar...”

Unga ko'ra Alloh yagona qudrat va hokum sohibidir. Tug'ilmagan, uning qiyosi va o'xshashi yo'qdir. Yetti iqlimni o'z qo'lida tutgan hukumdordir. Yerni va ko'kni u yaratgan deb quyidagi baytni yozadi:

Senundur padişahlik kudretun var,

Yaratdun yiri gogi heybetun var.

Koinatdagi barcha sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Shu sababli, butun borliqni o'z sifatlari bilan qamrab oladi. Faqatgina Tangri Taolo nurini sifatlari bilan yashirgani uchun zoti bilan emas, sifatlari bilan qalblarda joy egallagan. Yunus buni o'z misralarida shunday ta'kidlaydi:

Dunya- ahiret ol Hak yir gok toludur mutlak

Hic gozlere gorinmez kim bilur ne nisanda.

Uning xususiyatlarini ta'riflashga til ojiz. Zero, Alloh ming bir nom ichida o'z aksini ko'rsatadi:

Nice eydebile dil niteligun

Dile geturmege bin-bir adun var

Alloh azaldan bor bo'lgan, oxiratda ham faqat Alloh bo'ladi. Yunus, "Haqni dunyoda ko'rish" kerak ekanligini juda ko'p misralarida keltirib o'tgan:

Dost bundadur bellu beyan gordum dost diydarin iyan

Bu ilm-I hikmeti duyan ider bana dek azimi.

Alloh, "Kun" (yaral) amriyla butun mavjudodni yaratdi. va Va oxir yana shu so'z ila har narsani yoq qiladi. Boshlanish va yakun udir, zohir va botin ham u:

Hem evvelsin hem ahir kamu yirlerde zahir

Hic makam yokdur sensuz ben nicun goremezin

Karami kengdir. Moddiy va manaviy butun rizqlarni bergan "Razzoq" dir. Yerda va ko'kda hikmatlari chegarasizdir. Butun borliqning boshi, avvali udir. Qullarini o'zini borligini bildirish uchun yaratgan. Shu sababli, uning borligi qullari orqali bilinadi:³⁵

Kul padisahsuz olmaz padisah kulsuz degul,

Padisahi kim bileydi kul itmese yort savul.

³⁵ Bu husus ve 151-1 numaralı beytin şerhi için bkz. Abdülhakî Gölpinarlı. Yep yeni bir şerh. Yeni edebiyat dergisi. C II. S. 11. İstanbul 1971 S 4-5

Qablarga kirib bormaguncha hech kim Allohni bilmaydi. Alloh o'z diydorini qablarda ko'rsatadi. Alloh olamga Celal va Cemal sifatleri bilan namoyan bo'ladi. Haqni idrok etish esa bu sifatlarni tushunish orqali haqiqatga aylanadi:

Kimin kafir idup kimin muselman

Ani kimse itmez illa ol eyler

Kimine dert virur asla inletmez

Kiminun dunyada derdin bol eyler

Kimi baydur kimi yoksul dime kim

Eger baydur eger yoksul ol eyler

Kimine bir aba virmez kim giye

Kiminun atina atlas cul eyler

Kimini dunyada hayvan yaratur

Kimini kendine muhlis kul eyler

Kimin elin alur arsa cekarur

Kimin yire calar kara kul eyler.

Alloh yaxshi tilak tilaganga to'gri yo'lni ko'rsatadi. Uning jufti yo'qdir. Loydan odamni yaratgan, tuxumdan qush chiqaran, butun qudratlarda uing nomi aytilgan, turli-tuman karomatlar ko'rsatgan, borliqni ilm ila Qur'onda isbotlab bergan ham Udir:

Iy kendisini bilmeyen so'z ma'nisin anlamayan

Hak varligin isterisen us ilm ile Kur`andadur.

Olamda butun mavjudodning haqiqiy do'sti ham udir. Borliqda ko'rgan hamma narsamiz xoh u gul bo'lsin, xoh u bulbul bo'lsin o'z tilida , xush ovoz ila Allohni zikr etadi. Alloh go'zaldir. Jamolining ta'riflash uchun til ham ojizlik qiladi.

Dilile kim eydibile anun cemali tertibin

Can tutagi gerek tada anun kilinci tuzunu.

Iy padişah iy padişah us ben beni virdum sana,

Genc u hazinem kamusi sensun benum öndin sona.

Yuqoridagi baytda ko'rganimizdek , Yunus Tangriga murojaat qilarkan uni "Podishoh" ga o'xshatadi. Tangri – podishoh istiyorasining asosida Tangrini yagona va mutloq hukumdor ekanligi ta'kidlanmoqda. Tangri bandasining o'ziga nisbatan yaqindir. Ojiz bandalar esa buning farqiga yetmaydilar. Oshiqlar esa o'zlariga "shox tomirlaridan ham yaqin bo'lgan" Allohni tun-u kun zikr etishdan charchamaydilar:

Sen kim didun ya Rab bana ben yakinam senden sana

Cun yakinsin benden bana gorklu yuzun goster bana

Allah, jamolini pardalarda yasirgan:

Dilde soylenur haberun hergiz bulunmaz eserun

Gotur yuzunden perdeyi didaruna goyuneyin

Qudrat sohibi bo'lmish Alloh o'z amriyla butun falakni charx urdirib aylantib , oy va quyoshni o'rnini almashtirib yuborishi mumkin. Ikki jahonni qudratli qo'llari bilan tutib turadi. Hech kim uning iznisiz bir qadam ham yura olmaydi. Xohlasa yo'qdan bor qiladi, yaproqga ham jon ato etadi. Alloh mangudir. Butun mavjudod uning nafasi ila yashaydi. Allohning inoyati va rahmati ko'pdir. Dunyoda insonni hamma narsadan aziz sanagan. Alloh gunohlarimizdan kechib bizni siylagan yagona ma'rifat sohibidir. O'ldiradigan ham, tiriltiradigan va o'ldiradigan ham Allohdir. Bandalari uyquga ketsada u doim hushyordir. Bandalari yolg'z unga munajat eta oladilar. Ko'pincha niyoz ahli podishohning dargohidan quruq qo'l bilan chiqib ketmagan. Qiyomat kuni o'z hukmini ko'rsatadi, butun mahluqotni tiriltiradi.

Andan Israfil sur ura ölenler yirinden tura

Mizan-terazu kurila hukmini ide zul-Celal

Alloh Taolo Qur'onni samodan yerga yuborgan va bandalariga nozil qilgan. Alloh amrini (shariatni), xususan namozni vaqtida ijobat qilmoq kerak. Allohni marhamatiga erishish uchun bir bemorni holidan habar olib, unga bir qultum suv berish kifoyadir.

Allohning jamoli yetmish yetti parda bilan to'silgan. Oshiqning ko'ngli Allohning arshidir. Oshiqlar ilohiy ishq sharobini Alloh qo'lidan ichadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Yunusning fikriga ko'ra Alloh komil inson, haqiqat va ko'ngil uchburchagi ichida ilohiy bir nurdir. Vujud shahridagi taxtning sohibi udir:

Bu vucudum sehrine bir dem giresum gelur,

Icindeki Sultan'un yuzin go'resum gelur.

Butun borliq Haqnikidur:

Dervis Enel-Hak dirse n`ola aceb mi,

Hep varlik Hakkindur ala kulli hal

II.BOB. YUNUS EMRO IJODIDA ISHQ VA OSHIQ ATAMALARI TALQINI

Pokiza ilohiy muhabbat shavq-u zavqini kuylash Yunus Emro ijodida alohida o‘rin egallaydi. Yunus Emro sh‘erlari, ahloqiy ma‘rifiy hikmatlari bilan butun turkiy insoniyatni insof-u diyonatga, soflik va samimiyatga da‘vat qiladi. U o‘z she‘rlarida ishq va muhabbatdan, dunyo va oxiratdan, hayot va o‘limdan, komil inson sifatlaridan, o‘zlikni anglash, ahloqni, nafsni isloh qilishdan bahs yuritadi. Xullas, insonni inson qiladigan barcha fazilat va hususiyatlardan so‘zlaydi. Shoir tom ma‘noda ishq kuychisi, ishqning ming bir sehr-u sinoat bilan, ko‘ngil jozibasi va o‘rtanishlari bilan sharhlaydi... Har bir she‘rida Yaratganga, so‘ng inson va barcha mahluqotga muhabbatni his qilib turganingiz uchun ham sizni zavq va hayajon chulg‘ab oladi... Yunus Emro sevimli va qalbi ishqqa, muhabbatga to‘la tasavvuf buyugi, turkiy ma‘rifiy adabiyotning mashhur shoiridir. U ishq-muhabbatni ulug‘lovchi she‘riyat yaratdiki, u asrlar osha jahon adabiyotining durdonasiga aylandi.

Yunus Emro kabi oshiq, yoniq qalb sohibi o‘zbek kitobxonlari orasida ham o‘z muxlislarini topadi, ko‘ngillarga ma‘naviy fayz, huzur va halovat baxsh etadi, degan umiddamiz.

Ishq – tasavvufda Yaratganga bo‘lgan ishqdir. Allohdan o‘zga har qanday mahbubga bo‘lgan ishq yoki muhabbat soliklar nazdida majoziy ishq sanalgan.³⁶ Tasavvufona bitilgan g‘azallar va boshqa turdagi she‘rlarda majoziy ishq orqali haqiqiy ishq tarannum etiladi.

Ishq – ruhni dunyoviy g‘uborlardan tozalaydigan, qalblarga bir nur bo‘lib kirib, uni Parvardigor vasliga hidoyat etadigan qudrat, ma‘rifat va haqiqatga oshno etuvchi, kishiga o‘zini anglash, insoniylik mohiyatini kashf etishga yordam beruvchi kuch, mis vujudni oltinga aylantiruvchi kimyo. So‘fiy shoirlar ijodidagi bu ishq avvalo, ishq ilohiydir. Ishq ham dard, ham darmon, ham azob, ham rohat. Tariqatning barcha masalalari – hol va fano, botin va zohir, hayrat va tavhid, behudlik va devonalik va hokazolar ishq tushunchasi orqali anglashiladi va tushuntiriladi. Chunki ilohiy muhabbat mohiyatini anglamagan odam tasavvufni ham tushunmaydi, tasavvufdagi talablar, tariqat yo‘liga kirgan kishining aqida va g‘oyalari, holatini idrok eta olmaydi. Ko‘nglida ishq bor odamgina tun-u kunpoklik va haqiqatning oliy timsoli bo‘lgan Yaratganga intiladi, nafsqa qarshi urush boshlaydi, bu

³⁶ Olimbekov A. ishq asiri bo‘lgan jon. T.: “O‘zbekiston” 1998. B.15.

yoʻldagi ne ne azoblar, xorlig-u xoʻrlklarga chidaydi. Keyin esa ruhiy xolat lazzatini topadi. Chin oshiq – chin soʻfiydir, boshqacha qilib aytganda, ishq ilohni sevish unga sigʻinib, nola-munojotlar qilishgina boʻlmasdan, balki Allohni tanish, oʻz aslini tanish, kamolotga yetishish yoʻlidir.

Barcha tasavvuf peshvolari – Ahmad Yassaviy, Mavlono Rumi, Yunus Emro, Ashraf oʻgʻli Rumi va boshqalar ilohiy ishq-muhabbatga gʻarq boʻlgan insonlar va shuning uchun avvalo, ular chin oshiq kishilardir.³⁷

Binobarin, ilohiy ishq bor narsa va shu boisdan tasavvuf ixlosli amaldir. Tasavvufiy hayot ilohiy amrlarning hayotda qoʻllanilishidan, tatbiq qilinishidan hosil boʻlgan. Koʻngilga, qalbga bir huzur bagʻishlovchi hayot tarzi. Tasavvuf kuychisi Yunus Emro yozadi:

Ishq oʻti tushmish jonima yoqib mani yondirgali,

Yetmas yetti dengiz suvi suvsoqligim qondirgali.

Bu suvsagan oshiq uchun yetmish dengiz ozdir nechun?

Shayxim yuzin koʻrsam yetar, boqqanda bosh endirgali.

Uning ishq haqidagi yana bir bayti:

Ishq dardila xushman, qoʻl tort davoyimdan tabib,

Qilma darmonkim, halokim zahri darmonimdadir.

“ Men ishq dardi bilan mamnunman, sarxushman. Maeni davolashdan voz kech, ey tabib. Menga yaqinlashma! Menga davo izlama, tuzatishga harakat qilma! Chunki meni davolasang, tuzatsang men yoʻq boʻlaman, yoʻqolaman. Bu ishq mendan ketsa, men u holda insoniylikdan chiqaman”. Alisher Navoiy “Mahbub-ul qulub” da yozadilar: “Ishq alangasidan Majnunning kasali tuzaldiva usoʻz takroridan quvvatga kirdi”. Bayt:

Oshiqqa garchi zaʻfu marazlikdurur mijoz,

³⁷ Olimbekov A. ishq asiri boʻlgan jon. T.: “Oʻzbekiston” 1998. B.17.

Ma'shuq zikri ul marazig'a erur iloj.

(Agarchi oshiqning mijozi zaif bo'lsa hamkli, ma'shuqni esga olishi uning kasaliga da'vodir)

Oshiqlar barcha narsani ishq bilan ko'radilar, ko'zlariga xamma narsa ishq bo'lib ko'rinadi. Bular shunchaki gaplar emas. Yunus Emro hayotini ana shunday kechirgan inson edi. Uning qalbini ilohiy ishq, muhabbat to'ldirgan.³⁸ Allohning oshig'i bo'lgan inson edi u. So'zimizning dalili sifatida yana bir misol keltiraylik.

Ishqsiz odam dunyoda,

Aniq biling, yo'q erur...

Har biri bir narsaga

Sevgisi bor oshiqdur.

Mavloning dunyosida

Yuz ming turli sevgi bor,

Qabul qil sen o'zingga,

Boq, qaysisi loyiqdur.

“Dunyoda xamma biror narsani sevadi. Ming bir turli sevgi bor dunyoda. Lekin sen sevgilarni ko'z oldingga keltirchi, ularning qaysi biri senga loyiq ekan, o'zing tanla!” – deydi shoir. Ya'ni “Rahmonni sevish lozimmi, shaytonnimi? Imomni sevish kerakmi, shirkni, kufnrnimi? Zulmatni sevish lozimmi, adolatnimi? Har kim har narsani sevadi, lekin sen o'zingga maqbulini tanla!” degan Yunus Yaratuvchining sevgisi hududsiz, oliy ekanligini ta'kidlab o'tmoqda.

Shoir majoziy ishq bilan ilohiy ishqni bir-biridan ajratish uchun ularni Rahmoniy va Shaytoniy (ruhiy va nafsiy) ishqga ajratadi. Yana ishq nima ekanligini bilmaganlar ham bor deydi. Yunus bunday kishilar uchun “hayvon” sifatini ishlatadi:

Ishqsizlarga o'git qilma, o'giting qilmas kor

³⁸ Mahmud As,ad Joshon. Yunus Emro va tasavvuf. Toshkent .: Fan -2001

Ishqsiz odam hayvon bo‘lur, o‘giting bo‘lar xor

Yunus Emro tasavvufiy maqomlarni tartiblashda eng yuksak maqom ishq maqomi deb hisoblaydi. Ishq so‘zini aytgan til qudrat tilidir. Insonni mangu qilgan uning botinidagi ishqdir. Yunus oshiqlar mangu yashaydi deb ta’kidlab buni ochiqchasiga aytadi:

Yunus o‘ldi debon xabar berdilar,

O‘lgan hayvon emish, ishq ahli o‘lmas.

U hatto ishq ahlining o‘limini ham qabul qilmaydi. Haqiqatdan ham u o‘lmagan, haligacha tillarda, oramizda yashamoqda. Yunus ishqdan so‘zlaydi deb bejiz ta’kidlanmagan. Uning devonidagi eng ko‘p qo‘llanilgan so‘z bu “ishq” dir. Devonining boshidan oxirigacha 80-90 foiz she’ri ishqiy mavzuda. Ishq so‘zini baytlarida “mehr, muhabbat, sevgi” kabi so‘zlar bilan ham ifodalaydi.³⁹ Unga ko‘ra inson bu dunyoga da’vo qilish uchun kelmagan, sevish uchun kelgandir. Tangri ko‘ngillardadir. Sevgan va ko‘ngil bergan inson oliy maqomga yetishadi:

Men kelmadim da’vo uchun, mening ishim sevmοqdur,

Do‘st dargohi ko‘ngildadir, ko‘ngil qurmoqqa keldim.

Ishq tog‘larni zarralarga bo‘lib yemiradi, dengizlarni ummon qiladi, qaynatib jumbushga keltiradi. Hayotning hosilidir, o‘liklarni tiriltirur. Ilohiy ishq o‘zlikni yo‘q qiladi. Moddiy dunyoga xirs qo‘yganlar haqiqiy ishqdan bexabar odamlardir. Ishq turli jafolarga berilgan nomdir. Bu jafolarni boshidan kechirgan inson Do‘st jamoliga erishur:

Turli tuman jafoning nomini ishq demishlar,

Bu jafoga chidaganlar Do‘st diydoriga to‘ymishlar

Ishqga yo‘ldosh bo‘lganlarning mushkullari yengillashadi. Inson boshiga kelgan eng go‘zal inom ham ishqdur. Ishq deya yo‘lga chiqqan albatta maqsadigi yetishadi. Til bilan ishq deyish oson, oshiq bo‘lmoq mushkuldir.

³⁹ Yunus Emre Divani inceleme. Dr Mustafa Tatci. İstanbul. 2008. S. 318

Ishq soʻzini soʻzlarkanmiz Layli va Majnun nomlarini eslab oʻtmaslik mumkin emas. Ilohiy ishqning timsoli boʻlmish bu ikki qahramon Yunusning asarlarida ham eslab oʻtilgan⁴⁰. Shoir bir baytida ishq xabarini eshitganlarni birin Layli, biri Majnun va Farhod ekanligini aytadi. Ishq taʼrifda tengi yoʻqdur. Ishq hech kimning diniga va diyonatiga aralashmaydi:

Hech kimning diniga xilof qilmaz,

Din tamom boʻlgach yashar muhabbat.

Yunus Emro har bir narsani Allohning zarrasi deb biladi.⁴¹ Oʻzligini tabiat bilan qorishib ketganday his qiladi. Ishq yer va koʻk yaratilishidan ham avvalroq qadimiy boʻlgan har narsaning avvali va yaratilishning sababi boʻlgan javhardir:

Avval yer-u koʻk yoʻq edi, bor edi ishq bunyodi,

Ishq azaliy qadimdir, har narsaning ilk boshi.

U insonni ham Allohning bir zarrasi deb bilar ekan, Allohni ulugʻlash bilan insonni ulugʻlagandek boʻladi. Har bir narsa asliga intilganidek, inson ham asliga intiladi, yaʼni intilish ilohiy ishqda namoyon boʻladi deydi shoir. Bu yoʻlda inson, yaʼni oshiq turli holatlarga tushishi mumkin:

Goh esarman yellar kabi,

Goh toʻzarman yoʻllar kabi.

Goh toshaman sellar kabi,

Kel, koʻr meni ishq nayladi?

Men Yunusi bechoraman,

Boshdan oyoq yaraman.

⁴⁰ Yunus Emre Divani inceleme.Dr Mustafa Tatci. İstanbul. 2008. S. 319

⁴¹ Yunus Emre Divani inceleme.Dr Mustafa Tatci. İstanbul. 2008. S. 321

Yor elida ovvoraman,

Kel, ko‘r meni ishq nayladi?

Oshiqning (shoirning) ma‘shuqqa ishq, ilohga yetishishga intilish tasavvuf shoirlari ijodida ko‘p uchraydi.

Ishqing oldi mendan meni, menga sen keraksan sen,

Men yonarman tunu kuni, menga sen keraksan, sen.

Na borliqqa sevinurman, na yo‘qliqqa kuyinurman,

Ishqing ila ovinurman, menga sen keraksan, sen.

Ishqing oshiqni o‘ldirar, ishq dengiziga cho‘ktirar,

Tajalli ila to‘ldirar, menga sen keraksan, sen.

Yunus Emro ishq mavzusiga oid iboralarni ham o‘z she‘rlarida qo‘llagan. Ulardan ayrim iboralarni keltirib o‘tamiz: “ ishq ichida o‘lmoq, ishq bozoriga kirmoq, ishqga yo‘ldosh bo‘lmoq, ishq etagidan tutmoq, ishq o‘tida yonmoq, ishq o‘tida kul bo‘lmoq, ishqga yor bo‘lmoq, ishqga yetishmoq, ishq bilan yarashmoq, ishqning xaridori bo‘lmoq, ishq xikoyasini tuzmoq, ishq dardida qovrilmoq, ishqga to‘ymoq, ishqqa tarbiyalanmoq, ishq nafasiyla yashamoq, ishq devoni, ishq qasriga kirmoq, ishqning da‘vosini qilmoq, ishq jafosini chekmoq, ishqdan ibrat olmoq, ishq o‘tiga tushmoq, boshini g‘avg‘oga qo‘ymoq, ishqga bo‘yin egmoq, segidan tashnilik tuymoq, ishqga qo‘l cho‘zmoq, ko‘ngilda ishq kurtagi unmoq”.

Yunus Emro turk she‘riyati tarixida “oshiqlar she‘riyati” deb nom olgan yo‘nalishning asoschisidir. Oshiq co‘zi Yunus Emro devonida nomi jihatidan ham, xususiyatlarini sharhlanishi jihatidan ham eng ko‘p ishlatilgan so‘zlardan biridir. Bu so‘zning eng mukammal xususiyati bu – chinakam oshiq bo‘lishlikdir. Shu sababli oshiq so‘zi uchun darvesh yoki solih so‘zlarini ham qo‘llash mumkin. Uning “Uyga darveshlar keldi” degan bir she‘ri bor. Shoir uyga darveshlar keldi , deb to‘y qiladi. Bu haqida sevgisini hayajonini ifodalovchi ilohiy yozadi:

Yunus, nega kelding foniyl dunyoga,

Bas, Haqni zikr ayla, sho'ng'i sanoga...,

deydi Yunus. Uning komil insonga bo'lgan muhabbatidan bir ikki misol keltiraylik:

Eranlarning nazari

Tuproqni gavhar qilur.

Eranlarning poyida

Xok-tuproq bo'lgim kelur.

“ Eranlarning poyida tuproq bo'lgim keladi”, deb orzu qiladi shoir. Yunusning yuqoridagi misralari o'zbek mumtoz shoiri Huvaydoning baytini esga soladi:

Xoki poyi yaxshilar bo'l, xok bo'lmasdan burun,

Bu qaro yer bag'ri senga chok bo'lmasdan burun.

Bundan tashqari uning darveshlikga oid ko'plab madhiyalari bor. Zero, Yunusning fikricha, ma'rifatulloh yo'li ilohiy ishqqa, ilohiy muhabbatga yetishturuvchi tarbiya yo'li bo'la olgani uchun ham darveshlik juda qimmatlidir. Darveshlikning farshadagi ma'nosi “faqirlik” degani. Yunus buni turkchada “ miskinlik ” deb ham ifodalaydi. Uning Miskin Yunus degani Darvesh Yunus deganidir. Yo'qsa, Yunus miskin emas, simob kabi bir inson:

Bu darveshlik maqomi

Ajoyib bir maqomdir

Darve bo'lgan kishiga,

Avval hayot kerakdur.

Bu misra ham kiyga solingan ilohiy:

Chun unda hayot bo‘lur,

Haq bilan birlik bo‘lur

Borlig‘ini unutib,

Erga qullik kerakdir.

Shoir nazdida darveshlik ajoyib bir yo‘ldir. Darvesh bo‘lgan kishiga, avvalo, tiriklik, hayot kerak. Silkisang, tepsang, chimchilasang, bigiz suqsang, nina sanchsang, qimir etmasa, demak bu odam o‘lik. Inson esa, avvalo, tirik bo‘lishi kerak. Agar darvesh bo‘lgan kishida hayot bo‘lsa, xo‘blarga – yaxshilarga ergashadi. Komil insonga, avliyoga xizmatchi bo‘ladi. U yuksalishi uchun yaxshi xizmat qilishi, borlig‘ini unutishi kerak. Borliq nima? Borliq insonning kibri, g‘ururi, ilmi, puli, mavqei va maqomidir. Alisher Navoiy yozadilar:

Ey Navoiy, sen kimu, masjidu mehrob istamag,

Qayga qo‘ysa xo‘blar oyog‘in – sen boshingni qo‘y⁴².

Oshiqning ikki martabasi bor; biri sevuvchi, ikkinchisi sevikli. Alloh bir oyatda maolan shunday deb marhamat qiladi:

“Ularkim Allohni sevdilar, Alloh ham ularni sevdi”. Shu oyatdan ham ko‘rinib turibdiki qul Allohni, Alloh ham qulini sevadi. Ishq-muhabbat asosan Allohning sifatlaridan biridir. Oshiqlar ham Allohning haqiqiy sevuvchisi bo‘la oladilar. Shuningdek, Hazrati Payg‘ambar bu mavzuning eng yorqin misolidir. Alloh unga “habibim” deb murojat qiladi. Oshiq barcha qiyinchiliklarga chidab, zahmat cheksagina ma‘shuqlik, ya‘ni seviluvchi martabasiga erishadi.

⁴² Alisher Navoiy. Hikmatlar. T.: Sharq NMB 2009- B. 23.

Yunus bu mavzuni “ Biz sevdik oshiq bo‘ldik, sevildik ma’shuq bo‘ldik” misrasi ila qanday chiroyli ta’riflagan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek oshiqlik – nola-munojatlar qilishgina bo‘lmasdan, balki Allohni tanish va demak o‘z aslini tanish, kamolotga yetishish yo‘lidir.

Oshiqning kayfiyati o‘zgaruvchandir, u goh qayg‘u va sevinch, goh qo‘rquv va umid orasida bo‘ladi. Lekin shu arosat orasida bo‘lsada bundan mamnun bo‘ladi:

Yig‘lash, kulish va o‘lish, tirilish oshiq uchun

Qahr la lutfni bir bilur, bilmas uning farqini.

Oshiqning rangi sarg‘aygan, ko‘zlari yoshlangan, bag‘ri pora, yuragi yara, holi parishon, beli esa bukilgandir:

Tanam sarg‘ish, ko‘zlarim yoshli, bag‘rim pora yuagim g‘ashli,

Holim bilgan dardli qardosh, kel ko‘r meni ishq nayladi.

Oshiq bir valoyat sohibidir. Nafsini qanchalik tiysa valoyati shu qadar gurkiraydi. Ko‘ngil uning aholisidir. Haqning nuri ko‘nglida namoyon bo‘ladi. Dasturxonlari ishq ne’matlari ila to‘la, ichimliklari ishq sharobidir. Oshiq la ma’shuqning birlashishi atirgul va rayhonning iforidir. Oshiq lar Yaratganning amriga sodiqdirlar, yolg‘on da’volar ketidan yurmaydilar.

Oshiq lar o‘z yo‘llariga sodiqdirlar. Tavba qilguvchilardir. Ko‘zlari faqatgina ma’shuq nigin ko‘radi. O‘lmidan avval o‘lguvchi, mangu yashovchidirlar. Yordan ayrilgan oshiq dor tagida osilib o‘lishni afzal biladi. Oshiq lar do‘stining gul yuzidan haqiqatga yo‘l topadilar. Laduniy sirdan va hikmat ilmidan voqifdirlar. Jonlari murshid suhbat i la qayta jonlanadi. Oshiq lar jafokor va dardlidirlar. Dard chekib kecha va kunduz yig‘laydilar. Hasrat i la dardkashdirlar.

Ko‘zyoshlari yuzaga keltirgan ko‘lda bo‘y cho‘zgan qamishlar azaliy hasratlarining mahsulidir:

Oshiqning ko‘z yoshlari ko‘l bo‘ladi,

Oyog‘idan qamish bitib soz bo‘ladi.

Dil oshiq va mashuq sirini aytmaydi. Oshiq bo‘lmagan kishi quruq daraxtga o‘xshaydi. Oshiqlar moddiy dunyoga hirs qo‘ymaydilar. Ular uchun moddiy dunyoning zarracha ham ahamiyati yo‘q. Jonlari chiqsa ham yashay oladilar. Toat-ibodat ichida yashaydilar. Yunus: “Gar oshiqdursan sahar vaqtida turasan” deya haqiqiy oshiqlarning nizomlarini, asl vazifalarini ham eslatib o‘tadi. Oshiqlar nafslaridan kechib ezgulik, haqiqat tanlaganlar. Sultoniga qullik qilgan oshiq suv kabidir, bir yerda barqaror turmaydi ummonga yetmagunicha oqaveradi. U har ikki olamni shu yerda ko‘rish uchun kelgan bu dunyoga. Ishq yo‘lida ming jonini fido qiladi. Shaharma shahar yurib tildan tilga do‘st so‘raydi. G‘urbatda holini hech kim bilmaydi. Yuzini Allohga tutadi. Tili esa qush tilidir. Ishq rangiga burkangan. Maqomi ko‘ngil shahridir. Oshiq avvalgi umrida oshiq bo‘lgani uchun ham yana oshqlik unga nasib qiladi. U ishqni yo‘l ko‘rsatuvchi deb bilgani uchun ham ishqqa muftalo bo‘lgan:

Jonim, men azaliy oshiq bo‘lib keldim,

Ishqni yo‘lin tutdim ishqqa yondaship keldim.

Haq yo‘lini tanlagan oshiqning mazhabi ham, millati ham Haqdir. Shu sababdan ham oshiq bir mazhabu bir millatdir, u butun yo‘llarni butun ikkilanishlarni birlashtiradi. Qalbi ishq bilan to‘lgan oshiq dardini, ishqini yashira olmaydi. Sevib oshiq bo‘lishdan yagona g‘oya bu – sevilib ma’shuq bo‘lmoqlikdir.

Biz sevdik oshiq bo‘ldik, sevildik ma’shuq bo‘ldik,

Har dam yangi tiriklikda sizdan kim malul bo‘lur.

Oshqlarning ko‘ngillari xuddi bulut va quyosh kabidir; bir ochilib, bir yopiladilar. Beqarordirlar, ahvollari qandayligini bilib bo‘lmaydi. Xalq ichida kezib yuradilar, ichidagilarni hech kim bilmaydi. Ko‘ngillarida juda ko‘p yo‘llar bordir. Uning yana bir nomlari miskindir. Oshqlik maqomi shu qadar yuksakki, Yunus Allohni topishni istagan kishilarga oshiqlarning oyog‘idan mahkam ushlashni maslahat beradi.⁴³ Zero, oshiq mushohada maqomiga, rutbasiga yetishgani uchun ham oshiqdir, bu go‘zallik qarshisida mastdir. Uning ko‘ziga na jannat ko‘rinadi, na hurlar ko‘rinadi, na boshqa mavqe maqom ko‘rinadi. U ishq yo‘lida qilgan barcha ishini Haq rizosi uchun qiladi. U doimo faqat Allohning rizosini ko‘zlaydi, maqsad qiladi:

Yunus yuzing ko‘tarmagil oshiqlarning oyog‘idan,

Fido ayla yuz ming jonni, shunda toparsan sultonni.

Yunus Emro o‘z devonida oshiq so‘zi o‘rniga bir qancha iboralarni qo‘llagan. Bir qanchasini misol sifatida ko‘rsatib o‘tamiz:

“Ishq asiri, oshiqboz, ishq hayroni, shaydoyi Rahmon” va boshqalar.

Baytlarida oshiq mavzusi doirasida majoziy ba’zi ifoda va tarkiblar ham ifoda qilinadi; masalan “oshiqlar kitobi” deyilganda murshidi komil, “oshiqlar davlati ” deyilganda Alloh

⁴³ Yunus Emre Divani inceleme. Dr Mustafa Tatci. İstanbul. 2008. S. 323

nazarda tutiladi. Bulardan tashqari yana bir qancha misollarni ko‘rishimiz mumkin. “Oshiqlar ishrati” Allohni zikr qilish uchun o‘tkaziladigan majlislarga aytiladi. “Oshiqlar tili” qush tili, jon tili o‘rniga qo‘llanilgan. “Oshiqlarning yulduzi” oshiqlarning tolesi uchun qo‘llanilgan. “Oshiqlarning shariyati” oshiqlarning aytgan so‘zlari foydalanilgan ifoda. Shularning barchasidan ko‘rinib turibdiki oshiq Yunus Emro devonining eng muhim mavzularidan biridir. Qolgan mavzulvr esa oshiq timsoliga bog‘liq ravishda o‘rganiladi. Va vujudga kelgan o‘sha timsoli ham Haq oshig‘idir. U xususini qiyidagi misolda ko‘rishimiz mumkin:

Oshik ulki Haqni sevgay, Haq dardiga bo‘lgay davo

Bizning uchun hayr duo qilganlarga salom bo‘lsin.

Yuqoridagi so‘zlardan ko‘rinib turibdiki, oshiq timsolining psixologiyasi murakkab. Bu mavzu tasavvufni tushunmaganlar uchun yot mavzu. Shu sababli ham Yunus xuddi Mavlononing “Ishq nadur?” savoliga bergan “Men bo‘lib ko‘r – bilasan!” javobi kabi, oshiq kimdir degan savoliga shunday javob beradi:

Oshiqlarning holini oshiq bo‘lgan biladi,

Ishq bir sirli hazina, kirganlar uni ochar.

2.1. Ishq so'zi bilan bog'liq atamalar talqini

1. Uy, Bozor, Shahar

Istiqomat qilayotgan xonadonimiz biz uchun huzur va saodat bag'ishlovchi maskandir. Inchinun, uyimiz ishq uchun bir o'xshatishdir. Ishq uyi majoziy bo'lib, ko'ngil ma'nosida keladi. Ishq uyiga kirganlar boshqa hech narsaga mayl qilmaydilar.

Ishqqa da'vo qilganlar xirsu havoga uchmaslar,

Ishq uyiga kirganlar boshqaga mayl qilmaslar.

Bozor savdo-sotiq maskanidir. Ishq bozori oshiqning jonini sotib jonon sotib olinadigan joy, ya'ni komillikka erishganlarning to'plangan joyidir:

Ishq bozoridir bu – jonlar sotilur,

Sotarman jonimni, qani kim olur?

Bog'da turli tuman-eguliklar hosil beradi, gullar barq urib ochiladi. Ishqning ham xuddi bog' kabi ne'matlari bor. Bu ne'matlar toat-ibodatlar orqali qo'lga kiritilgan ilohiy ilmlardir:

Kirdim ishqning bog'iga, boqdim o'ngu so'limga,

Turli ne'matlarni totib, gullarni hidlagani.

Ishqning shaharga o'xshatilinishi shaharni obodonlashtirish bilan bog'liq.⁴⁴ Ishq shahri doimo oboddir. Shahar majoziy ma'noda abadiyat martabasiga kelgan ko'ngilga ishoradir:

Bu ishq shahriga uch yuz dengiz kechib o'tarsan,

Uch yuz dengizni kechib yetti tamu toparsan.

2. Javhar, xazina, ma'dan

Ishq qiymati jihatidan javhargaga qiyoslanadi. Yana ishq qadrli va sirli bir hazina kabidir. Ishq xazinasini qo'lga kiritganlar buni toabad himoya qilishlari kerak:

⁴⁴ Hacı bayram Veli. Ankara 1991. s. 74

Oshiq bo‘lganlar holini oshiq bo‘lganlar bilur,

Ishq bir sirli xazinadur ishq ahli unga egadir.

Ishq bilan ma’dan orasidagi aloqa ham , ishqning bebaho bir narsaga o‘xshatilishidir. Ishq qimmat va topilishi qiyin bo‘lgan narsaga mengazatiladi:

Xabar bering oshiqlarga men ham ishqqa ko‘ngil berdim,

Ishqni kim baholaydi, men ham ishq ma’danin topdim.

3. Zanjir, ip, sham, olov

Zanjir bir-biriga ulangan halqalardan tashkil topgan. Qadimda aqli zaiflar ahmoqlik qilmasliklari uchun bo‘ynilaridan va oyoqlaridan o‘tkazilgan zanjir bilan bog‘lab qo‘yilganlar. Ishqiy devonalik bilan ahmoqlarga taqilgan zanjir bog‘liqligi ishq zanjiri tarkibida ifoda qilingan:

Ishqning zanjirini uzib tog‘lar aro qochaman,

Sensan tunu kun tashvishim, menga sen keraksan, sen.

Yunus Emro bir baytida shamchiroq piligi uchun ip so‘zini ishlatadi. Shamchiroq bu baytda ko‘ngilga qiyoslangan. Shamchiroqning ichidagi piligi ko‘rinmaydi, pilik yog‘ga botirilib shamchiroqni yoritadi. Asosan ko‘zga ko‘rinmay yongan narsa bu pilikdir. Ko‘ngil ham pilik kabi ko‘rinmay va ichdan yonadi:

Ul kim meni kutar edi, har chiroqda saqlar edi,

Ishq ipining uchidagi shamchiroqning joni edi

Sham ham yorug‘lik ulashish uchun xizmat qiladi.⁴⁵ Oshiqning joni ishq ila yorug‘dir. Yunus shamni to‘g‘ridaan to‘g‘ri murshidlarga qiyoslaydi. Darveshlar murshid huzurida sham atrofidagi parvonalariga o‘xshaydilar. Shamning otashida kuygan parvonalar murshid bergan ishq ila ado bo‘lgan darvesh kabidirlar.

Darveshlar Xaqning do‘sti, jonlaridir Unga fido,

⁴⁵ Mutercim Asim. Kamus Tercumesi. Istanbul 1304. C II. S. 310.

Ishq shamini yoqdilar, parvonalar kelsin ango.

Ishq yondiruvchidir. Ishqning yondiruvchanlik xususiyati aniq bo'lgan o't so'zi bilan ta'riflangan. Ishq o'tining joyi ko'ngildir. O't so'zi ba'zan ishq o'rnini bosuvchi istioradir. Oshiq ishq otashiy-la yonib kul bo'lishni istaydi. Zero otash yondirib kul qilguvchidir. Ishq otashi ham oshiqning nafsini yo'q qilur. Bu motiv Yunus Emro devonida yetarlicha ko'rsatib o'tilgan. Buraldan ba'zi misralarini keltirib o'tamiz:

Oshiq bo'l, ishq o'tida yonib ko'r.

Bu muhabbat o'ti mening yuragimda yonadu.

Ishq o'tining tutunidan Yunusning dili pora.

4. Dengiz, ummon .mavj, suv, yomg'ir, quyosh

Dengiz chegarasiz bo'lishi bilan, ichidagi butun dengiz mavjudodlarini qamrab olganligi bilan, kengligi bilan ishqqa aloqador. Ishq dengiziga tushgan odamga qayiq ham kerak emas. Zero, oshiq bu dengizga g'arq bo'lmoqni istaydi. Bu dengizda hamma ham suza olmaydi:

Suzishni bilmagan qul kirmasin bu dengizga,

Ishq dengizi chuqurdir ajablanma botganingga.

Ishq dengizida suzgan haqiqat gavharini topadi:

Bir kishi oshiq bo'lsa, ishq dengizida suza,

U dengizni ichida gavhar topgandek bo'lur.

Ishq insonda ko'ngil guborini tozalaydigan suvga ham qiyoslanadi. Quyidagi baytda "ishq suvi" tabiri majoziy ma'noda bo'lib, ko'zyoshi ma'nosida keladi. Ishq suvi ila nafsini poklagan inson orifdir:

Bu dam ishq suviyla yuzim yuvdim,

Ajab orif bo'ldim irfon ichinda.

Ishqning yomg'irga o'xshatilinishi rahmat va hayot manbasi bo'lganligidir:

Ishq yomg'iri yog'sa gar ko'ngil ko'ksidan tomar,

Sevgi xabari ketgazar yomg'irni ayoz ila.

Quyoshning olamga nur taratishi ishqning ko'ngil olamini yoritishiga qiyoslanadi.

Eshiting ey yoronlar, ishq bir quyoshga o'xshar,

Nuri bo'lmagan ko'ngil bamisoli toshga o'xshar.

Bulardan tashqari Yunus Emro yana bir qancha unsurlarni ishqning majoziy ma'nodagi ko'rinishiga qiyoslaydi. Masalan: qilich, o'q, chodir, qush, qanot, tuzoq, davlat, sulton, dard, jafo, yara, xastalik va boshqalar. Bu majoziy ma'nodagi ishqni anglatuvchi so'zlar go'zal baytlar ila o'z ifodasini topga

2.2. Oshiq so'zi bilan bog'liq atamalar talqini

1. Irmoq, qurigan daraxt, bulbul, qo'y, arslon, parvona

Oshiqning jo'shqin ko'ngil kechinmalari uni to'lib-toshib oqayotgan bir irmoqqa o'xshatilinishiga sabab bo'ladi. Yunus tadrijiy uslubla ko'ngilga shunday xitob qiladi:

Toshdin yana devona ko'ngil, suvlar kabi oqarmasan?...

Irmok yana sog'inchning, hasratning va visolning ham ramziy ma'nosidir. Oshiq ham shu sabab-la irmoqqa mengzatilmoqda.

Oshiq bir murshidga ko'ngil bermasidan avval o'zidan behabar qurib qolgan daraxtga qiyoslanadi.

Bir qurigan daraxt edim, yo'l uzra tushgan edim,

Murshid menga nazar qildi, barq uribon ko'kardim.

Sevuvchini gulga, gul joylashgan yerni gul bog'iga o'xshatilinganda oshiq bulbul kabi tasavvur qilinadi:

Bulbul ham oshiq bo'lmish qizil gulning yuziga,

Ko'rdim miskinlar yuzin hazoron doston bo'ldim.

Mening tilim qush tilidir, meninig shahrim do'st shahridir,

Men bulbulman, do'st gulimdir, biling gulim so'lmas mening.

Gul bog'ininig bahorda yangidan hayot boshlashi oshiqning ko'nglida ishqning zohir bo'lishiga o'hshaydi. Bu ishqning ta'siri ila oshiq bulbul kabi faryod chekadi:

Bahor kunlari keldi, sayra bulbulim sayra.

Butun gullar zavqqa to'ldi sayra bulbulim, sayra.

Bulbulning navosi gul uchun, oshiqning navosi Yorga atalgan. Oshiqlarning tong saharda turib Haqqa yolvorishlari, xuddi sahar turib gul uchun sayragan bulbul kabi:

Saharlar turib Senga nolalar qildim,

Sayrasin bulbullar ham gulzorlarida.

Gul bog'ida sayragan bulbul zikr majlisida murshidiga atab duolar qilgan darveshga ham o'xshatiladi. Bulbulning gul terishi motivi ham oshiqning mashuqiga yetishishidir:

Do'st bog'ida bulbul bo'lib gullarni terib kechaman.

Bulbulga tuzoq, tikan xavf solganidek oshiqning tuzog'i dunyodir. Oshiq dunyoga, mol-mulkga xirs qo'ymasa bu tuzoqga tushmagay. Oshiq'larga yana bir baytda "bulbuli xasta" deya murojaat etiladi. Xasta sifati bulbulning ishq iztirobi ila chekkan zahmatiga aytiladi.

Oshiq'lar ba'zan ishq arqoni bilan bog'langan qo'yga o'xshatiladi. Bu o'xshatmada qo'yning yuvvoshligi va beozorligi e'tiborga olingan bo'lsa ajab emas:

Uni sevgan oshiq'larning sifatlarin so'ylasam,

Uning ishq arqondagi qo'ydan ham yuvvosh ekan.

Oshiqning o'zi yoki joni ishq yo'lida qurbon bo'ladi. Qurbon bo'lish esa fidokorlikning, nafsni tark etishning bir ramzidir. Oshiq qurboni mavzusini gapirar ekanmiz, Ismoil Payg'ambarni eslamaslik mumkin emas. Ismoil Payg'ambar ishq yo'lida jonini qurbon qilgan oshiq timsolidir:

Loyiq emasdur tegma jon, do'st yo'lida fido bo'lishiga,

Umid qilar jumla oshiq do'stga qurbon bo'lishni.

Ishq bir dengiz bo'lsa oshiq shu dengizda suzayotgan baliq misolidir. Baliq suvdan chiqsa o'lib qolishi, oshiqning ishqsiz yashay olmasligi kabidir:

Sening ishqing dengizdir, men esa baliq,

Baliq suvdan chiqiboq hamon o'ludur.

Arslonni ushlab uchun zanjirband etadilar. Ishqning zanjirga o'xshatilingan bir baytda oshiq zanjirband etilgan arslonga qiyoslanadi:

Necha arslon da'vo qilur ishqga bo'y egmaslikga,

Ishqing zanjiridan g'azablangan endi yuvvosh bo'ldi.

Parvona va shamchiroq xususiyatlari jixatidan birga qo'llanilinadi. Oshiq parvonaga o'xshatilgan baytlarda murshidning jamoli va yanog'i porloqligi ila shamchiroqqa o'xshatilinadi.

Darveshlar Haqning do'sti, jonlaridir Haq masti,

Ishq shamini yoqdilar, parvona bo'lgan kelsin.

2. Sarxush, mast, devona, bechora, xasta, dardli, kul, g'avvos, g'arib

Oshiq mohiyati jihatidan sharobga mengzatiladi. Bunga bog'liq ravishda ishq sharobini ichgan oshiq sarxush timsolidadir. Sarxush bo'lgan oshiqlarning ishrati bo'lganidek, ilohiy oshiqlarning ham ishrati bordir. Bu ishrat zikir qilishdir:

Istasasang bu dunyoda har dam sarxush bo'larsan,

Ishq qadahin to'lg'azgin, doim sarxush yurarsan.

Sevgi har narsaga qodir. Oshiq ishq dardi ila xastadir, chorasizdir:

Bechora miskin Yunus, ishqdan da'vo qilursan

Do'stdan xabar keladi, telba bo'lib yurursin.

Baytlarda ishqning sifatlari bo'lmish dardli, zaif kabi so'zlar doimo bir ma'noda keladi. Oshiq mashuqiga yetishishi dardi bilan xastadir. Lekin u bu dard boshiga tushganidan mamnundir. Dardlining holini dardli, xastaning holini xasta tushunadi:

Ishqdan dardli bo'lganga darmonim bordir mening,

Ishq kuychisi bo'lganga darmonlar so'rab keldim.

“Layli va Majnun” dostoni xotimasida Alisher Navoiy hazratlari yozadilar:

Insonga erur kamol matlub,

Andin dag'i dardumatlub.

Oshiq beqarordir. Ovvoradur:

Yunusdir ishq ovvorasi, bechoralar bechorasi,

Sandadur dardim chorasi, darmonin so'ra yuragim.

Seviluvchi hukum va tasarruf sohibi bo'lgan bir podshoh bo'lsa, oshiq ega unga bo'yin eguvchi quldir:

Sen sultonsan, men qulman, sen bir gulsan, men bulbul,

Hukming olamga yetar, butun borliqdagi qullar uchun.

Ishq bir dengizdir, oshiq esa shu dengizda suzgan yoki javohir izlagan bir suzuvchi shaklida ifoda qilinadi:

Suzishni bilmagan qul kirmasin bu dengizga

Oshiqning g'avvosga qiyosi yana bir baytda o'z aksini topgan:

Bugun ishq daryosining g'avvosi bo'ldim,

Gavharlar topdim ummon ichindan.

Oshiqning yana bir sifati g'aribdir. Bu so'z ba'zan to'g'ridan to'g'ri oshiqning o'ziga nisbatan ishlatilgan istioradir. Binobarin, shoir: "Men bunda g'arib bo'ldim", deydi.

Ne bor aytiladigan tilda borliq Haqningdir qulda,

Borliqning har yurtida men bunda g'arib bo'ldim.

3. Pul, g'ubor, toj, kul, zarra

Pul so'zi turklarda qurushning maydasiga nisbatan ishlatilindi. Bir qurish qirq para, bir para uch aqcha, bir aqcha uch puldir.⁴⁶ Paralar odatda qimmatbaho ma'danlardan ko'pincha oltindan qilinardi. Pul esa unchalik qimmat bo'lmagan ma'danlardan ishlanardi. Bundan

⁴⁶ Mehmet Zeki Pakalın. Osmanlı Türk deyimleri. C. II: s. 781.

ko‘rinib turibdiki pul qolganlariga nisbatan ancha narxi past. Pulning bu xususiyati oshiqning avvaliga, ya’ni oshiq bo‘lmasidan avvalgi xoliga mos keladi:

Meni ko‘rgan ming pulga arzitmasdi,

Endi barmoqlari ila ko‘rsatsatmoqdalar meni.

Oshiqning turli holatlari uning sirini ifodalagan. Uning ko‘zlaridan anglab olishgan. Shu sababla malomatli oshiq boshqalarga g‘ubor, chang zarrasi kabi ko‘ringan. Lekin u o‘z irfoni ila olamlarning tojidir

Bu jumla iy jahonning toji ekan ul,

Oyoqlarda g‘ubordir oshiq elida ul.

Moddiy dunyoning eng kichik parchasi bo‘lgan zarraning hajmi yo‘qdir. Hajmsiz va qadrsizdir. Oshiq olamda bir zarradek. Ishq quvvati ишдфт dunyodan ayro emas ekanligini anglaydi va o‘zini qadimiy bir zarra ekanligini ta’kidlab o‘tadi:

Gar sur’atim tushar bo‘lsa necha nuqson yirik menga,

Qadimiy zarrangman sening, necha bora kelsam dunyoga.

Xazinalar vayronalardan topiladi. Oshiq o‘z vujudini vayronaga aylantirgan, lekin xazina saqlanadigan joyini mustahkamlagan.

Hazrat Payg‘ambar olamga abadiy nur ulashguvchi bir qandildir. Oshiq esa bu qandilning nuridan kul kabi yonib ado bo‘ladi yohud qandilning chirog‘i bo‘lib doimo yonib turishi orzu qiladi:

Qo‘ygil meni, hush yonayin kul bo‘libon to‘kilayin,

Ul sevgning Muhammadga bo‘layin chiroq, Allohim.

4. Botir, asir, Majnun, Laylo, Ibrohim Adham.

Oshiqning botir bo‘lishi uning ko‘z ochib yummasdan jonini ishq yo‘lida fido qilishidir. Bohodirlar ustilariga temirdan qalqon kiysalar, oshiqlar himmat libosidadirlar:

Qilichli bahodir jon taslim qilsada,

Qilich kesa olmas himmat libosin.

Zanjirband qilingan mahkum qaramlikdan qutila olmaydi. Oshiq esa ishq zanjiriga bogʻlangan asir kabidir:

Koʻrdim degan emas koʻrgan, bildim degan emas bilgan

Haqiqatni koʻrgan menman, ishqga asir boʻlgan menman

Sharq olamida ishq iztiroblari bilan shuhrat qozongan asar qahramoni Majnunni Layli dardi ila yonib kuyishi tillarda doston boʻlgan. Majnun bir ishq qahramoni timsolida oshiqlarning haqiqiy misolidir. Oshiqning maqsadi oʻz Laylisiga yetishmoqlikdir. Laylo haqiqiy seviklidir. Sevuvchi va sevikli bor joyda ikkilik yuzaga keladi:

Bunda demasdan Majnun, Laylo nomin olmadim,

Na Laylo edim unda na Majnuni sargardon.

Oshiqning Majnunga oʻxshatilingan baytlarda Majnunga oid sifatlar oshiqda ham bordir. Bu mavzuda Yunus “ishqqa Majnun boʻlmoq, Majnun kabi sarson boʻlmoq” kabi iboralarni ham ishlatadi.

Ishqni deb toju taxtdan voz kechgan Ibrohim Atxam ham oshiqlarning bir timsolidir:

Ul majlisning oshiqlari, Ibrohim Adxamdir biri,

Balh shahri kabi mingtadir har yerda vayron.

Shu bobning xulosasi oʻrnida shuni aytish mumkinki, Yunus Emro tom maʼnoda ishq kuychisi. Ishqni ming bir sehr-u sinoat bilan, koʻngil jozibasi va oʻrtanishlari bilan qablarni jumbushga keltiradi. Shu tufayli ham barcha uning sheʼrlarini sevib oʻqiydi.

XULOSA

Ma'lumki so'fiyona tarzda ko'p qo'llaniladigan tasavvufiy ramzlar, istilohlar mavjud. Ularning har birini alohida muayyan shoirning asrlaridan olingan na'munalar misolida talqin qilib berish muhim ahamiyatga ega.

Bizning ilmiy ishimizda ham mutassavvuf shoir Yunus Emroning she'rlaridagi tasavvufiy atamalarni tadqiq qilish bosh masala bo'ldi.

She'r va so'z olamining sultonlaridan biri bo'lgan Yunus Emro turk tili uchun yetarlicha, tasavvuf adabiyoti uchun ham katta hissa qo'shgan buyuk tajriba manbasidir. Yunus yaratgan adabiy meros hanuz boshqalarga o'rnak bo'lib kelmoqda. Tasavvufdek buyuk olam ichida qorishiq bo'lgan tasavvufiy atamalarni turk tilida muzlislariga yetkazib berdi. Yunus ishongan, yashagan va tavsiya qilgan tasavvuf hayotning aksidir.

Ilmiy ishimizning 1-bobida Yunus Emroning hayotiva ijodi, adabiyotga va turk tiliga qo'shgan hisasi bayon etilgan. Yunus Emroni yaxshi bilishimiz va tushunishimiz uchun bir qator ma'lumotlardan, asosan, tasavvuf ilmidan teran habardor bo'lishimiz kerak. Tasavvuf adabiyoti va uning terminalogiyasi O'zbekistonda faqatgina mustaqillik davridan boshlab jiddiy o'rganila boshlanganiga qaramay, bu sohada e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi.

Tasavvuf terminalogiyasini to'g'ri yondashuv asosida o'rganilishi mumtoz badiiy asarlarni tushunishga ham, adabiy ta'lim metodikasini chuqurlashtirishga ham, lisoniy ta'limda so'zning ma'nosini matn bilan bog'lab o'rganishga ham yordam beradi. Ayniqsa, tasavvuf terminlarini lug'aviy ma'nolarini va mazmunini to'g'ri shakllanishi hamda mustahkamlashni ta'minlaydi. Har qanday so'fiyona mazmundagi asarlarni to'g'ridan to'g'ri o'qib tushunish, uning mag'zini chaqish muayyan mushkulot tug'dirishi tabiiy. Buning asosiy sabablaridan biri tasavvuf adabiyotida ko'plab uchraydigan so'fiyona tushunchalar, iboralar, ramzlar, timsollar va istilohlarning mavjudligidir. So'fiy va oriflar muayyan so'zlarni faqat tasavvuf ahli tushunib, boshqalar tushunmasligi uchun ularning zohiriy ma'nolarini tarz etib ramz sifatida qo'llay boshlaganlar. Shu sababli qaysi ilm sohibi bo'lishidan qat'iy

nazar, yetarlicha bilim egallash va batafsil tadqiqot olib borish uchun birinchi navbatda o'sha sohaga taalluqli ramz, timsollarni va istilohlarni bilish kerak bo'ladi. Diqqatni jalb qiladigan yana bir jihat shundan iboratki, tasavvuf adabiyoti paydo bo'la boshlashi bilanoq so'fiyona mazmundagi asarlarni to'g'ri tushunishga xizmat qiluvchi tasavvuf istilohlari lug'atlari yozila boshladi. Ta'kidlab o'tish joizki bu ishlar bugungi kunda ham davom etmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri tasavvuf adabiyotiga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganidandir. Bizning bu malakaviy ishimizda ham shu lug'atlardan unumli foydalanildi.

Ishimizda Yunus Emro adabiy merosida qo'llanilgan shariyat, tariqat, ma'rifat, haqiqat kabi tasavvufning maqomlariga shoir nuqtai nazari misollar yordamida yoritildi. Shuningdek so'fiyning ma'naviy martabasini ifodalovchi sayr-u sulk, yaqin, mushohada, tark, sabr, nazar, riyozat, ehson, qanoat kabi istilohlarga muhtasar ta'rif berildi. O'n sakkiz ming olam, jon ko'zi, jon qulog'i kabi iboralar ham Yunus Emro she'riyatida o'ziga xos badiiy talqinini topgan.

Ishimizning I.BOB 2-faslida tariqat va u bilan aloqador tushunchalar jumladan tasavvufda tariqat odoblaridan ta'lim beruvchi ustoz ma'nosidagi murshid, pir, bu yo'lning tabqori ma'nosini ifodalovchi miskin, darvesh kabi so'zlarga, shuningdek muridni kamolatga yetkazuvchi zikr, tafakkur kabi tasavvufiy atamalarning semantikasi, Yunus Emro nazmidagi badiiy ifodasi hususida to'xtaldik.

Ishq va oshiq atamaları Yunus emro ijodida salmoqli o'rinni egallaydi. Shoir ishqning ta'rifini, uning xilma-xil ko'rinishlarini, oshiqning holatini, ruhiy kayfiyatini zamondoshlariga nisbatan sodda va anchayin mukammal tarzda ifodalab bergan. Ishimizda ana shu holat ilmiy nuqtai nazardan imkon qadar tahlil etildi. Bunda shoirning ishq bilan bog'liq o'xshatishlari, jumladan uy, bozor, shahar, javhar, zanjir, dengiz kabilar shoir she'rlaridan keltirilgan misollar yordamida ko'rsatib berildi.

Oshiq so'zi bilan bog'liq irmoq, bulbul, parvona, devona, g'avvos, g'arib, atamaları shoirning tasavvufiy qarashlarini ifodalashda yordamchi komponent vazifasini o'taydi.

Shoir tasavvufiy tushunchalarni ifodalashda Majnun, Laylo, Ibrohim Adham kabi atoqli otlardan o'rinli foydalangan, ayni paytda mumtoz adabiyotdagi talmeh deb nomlanuvchi san'atning go'zal na'munalarini o'quvchiga taqdim etgan.

Yunus Emro ijodini tadqiq etish mumtoz adabiyot badiiyati, nafosati haqida tasavvur berish bilan birga shoirning turk adabiy tili rivojiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari:

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma`naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e`tibor – ma`naviyatga, kelajakka e`tibor. Toshkent: Ma`naviyat, 2009.

O'zbek tilidagi adabiyotlar:

3. Alisher Navoiy. Hikmatlar. Sharq nashryot- matbaa kompaniyasi, 2000
4. Badiiy adbiyot va tasavvuf timsollari. Kollektiv monografiya. Toshkent.: 2000
5. Ibtidosidan to bugunga qadar tukiya turk adabiyoti. Anqara.: - 2003
6. Islom tasavvufi manbalari. (Tasavvuf nazariyasi va tarixi) Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev. Toshkent.: O`qituvchi 2005
7. Islom ensiklopediyasi. Toshkent: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
8. Qurbonbekov Ahmadjon. Masnaviy ma`naviyda tasavvuf timsollari. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti. Toshkent.: 2011
9. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson ahloqi 1-kitob. Toshkent.: 2000
10. Komilov N. Tavhid asrori 2- kitob. Toshkent.: 1999
11. Mahmud As`ad Jo`shon. Yunus Emro va tasavvuf Toshkent.: Fan-2001
12. Olimbekov A. ishq asiri bo`lgan jon Toshkent.: O`zbekiston- 1996
13. Olimbekov A. “ Turk adabiyoti tarixi” (Ma`ruza matni). Toshkent.: O`zbekiston 2000
14. Olimbekov. A. Turk adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. T.: “Universitet” 1990. B. 28.
15. Tilavov abdumurod. Ishq haqida 100 so`z.Toshkent. Sano-standart 2001

16. Tasavvuf adabiyoti lingvopoetikasi. Maqolalar to'plami. Mualliflar guruhi. Toshkent.: 2000
17. Tasavvuf adabiyoti lingvopoetikasi. Maqolalar to'plami. Mualliflar guruhi. Toshkent.: 2011
18. Xaqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. Toshkent .; 1995
19. Qurbonbekov Ahmadjon. Masnaviy ma'naviyda tasavvuf timsollari. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti. Toshkent.: 2011
20. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiiy Tarbiya I . sharq nashryot matbaa aksiyadorlik kompanyasi.. Toshkent.: - 2008

Chet tilidagi adabiyotlar:

21. Aysenur Kulanlioglu Islam. Edebiyat ve dil yazarlari. Ankara.: - 2007.
22. Abdalbaki Golpinarli. Tasavvuftan degimler ve ataso'zler. Istanbul.: - 1997
23. Behcat Necatigil. Edebiyatimizde ismler so'zlugi. Istanbul.: - 1995
- Mustafa Uslu. Yunus Emre. Gonca yayinlari. Istanbul.: - 2008
24. Buyuk turk klassikleri. Istanbul.: -1986
25. Dr. Mustafa Tatci. Asik Yunus. Istanbul.: -2008
26. Dr. Mustafa Tatci. Yunus Emre divani. Istanbul.: - 2008
27. Dr. Aysenur Islam – Turk edebiyati tarihi-1. Ankara.: - 2000
- Turkiye turk edebiyati. Ankara.: - 2003
28. Ilhan Basgoz. Yunus Emre I . Cagdas Matbaacilik Yayıncılık LTD Mayıs- 1999
29. Nimet Arzik. Yunus Emre poems. Ankara.: - 2000
30. Mustafa Uslu. Yunus Emre. Gonca yayinlari. Istanbul.: - 2008

31.Tal'at Sait Kalman. Yunus Emre . Ankara.:-2000

32. Sahin Inci Yunus Emre. Istanbul.: 2007

33. Temirtas F. Yunus Emre Divani. Istanbul.:-1972

34. Yunus Emre divaninidan secmeler. Karanfil yayinlari. Istanbul.:-2011

Internet saytidan olingan manbalar:

www.edebiyat.turk.net

www.turk.tili.edebiyati.ve.turk.tili.com

Yunus Emro she'rlaridan na'munalar

G'aribdeksan bu dunyoda

G'aribdeksan bu dunyoda,
Kulma-kulama, yig'la ko'ngil.
Darding hali ko'pdir sening,
Kulma-kulama yig'la ko'ngil.

Iching bari jabru-jafo,
Dunyo kimga qildi vafo.
Qani Muhammad Mustafo,
Kulma-kulama yig'la ko'ngil.

Abu Bakr siddiq valiy,
Udir payg'ambarning yori.
Qani Umar, Usmon, Ali,
Kulma-kulama yig'la ko'ngil.

Bir kun ajal kelar bo'lsa,
Qullar qullikdan qutilsa.
Jumla olam tuproq bo'lsa,
Kulma-kulama yig'la ko'ngil.

Oshiq Yunus so'zlar so'zin,
Gohi yozin, gohi kuzin.
Qonli yoshlar to'kar ko'zin,
Kulma-kulama yig'la ko'ngil.

Ko'rgim keladi sizni

Qidira-qidira topsam izingni,
Hoki poyinga sursam ko'zimni.
Haq nasib qilsa ko'rsam yuzingni,
Yo Muhammad, ko'rgim keladi sizni.

Bir muborak safar qilsam-u ketsam,
Ka'ba yollarida qumlarga botsam.
Jamoling bir bora tushimda ko'rsam
Yo Muhammad, ko'rgim keladi sizni.

Zarracha qolmadi ko'nglimda hiyla
Sidqi dil-la kirganman bul Haq yo'lina.
Abu Bakr, Umar, Usmon ham birga,
Yo Muhammad, ko'rgim keladi sizni.

Afofat tog'idir bizning tog'imiz,
Unda qabul bo'lgay duolarimiz.
Madinada yotar Payg'ambarimiz,
Yo Muhammad, ko'rgim keladi sizni.

Yunus madh ayladi Sizni tillarda,
Tillarda, tillarda ham ko'ngillarda.
Yig'lay-yig'lay tindim g'urbat dog'ida,
Yo Muhammad, ko'rgim keladi sizni.

Men yurarman yona-yona

Men yurarman yona-yona, ishq bo'yadi meni qona,
Na oqilman, na devona, kel ko'r, meni ishq nayladi.

Goh esarman yellar kabi, goh to'zarman yo'llar kabi,
Goh oqarman sellar kabi, kel ko'r, meni ishq nayladi.

Oqar suvdek sharqirayman, dardli jigarim dog'layman,
Shayxim xotirlab yig'layman, kel ko'r meni ishq nayladi.

Yo qo'limdan tutgil meni, yo vaslingga yetkiz meni,
Ko'p yig'latding , kuldir mreni, rtk ro'r ish nayladi,

Ishqining oldi mendan meni, menga sen keraksan sen,
Men yonarman tun-u kuni, menga sen keraksan sen/

Na borlikka sevinaman, na yo'qlika kuyunaman,
Ishqing bilan ovunaman, menga sen keraksan sen.

Ishqinigi oshiqni o'ldirar, ishq dengiziga cho'ktirar,
Zohir bo'libon to'kdirar, menga sen keraksan sen.

Ishqing sharobin ichsam, Majnun kabi toqqa tushsam,
Sensan tun-u kuni andisham, menga sen keraksan sen.

Agar meni o'ldirsalar, kulim ko'kka sovursalar,
Xokim seni deb hayqirar, menga sen keraksan sen.

Yunus erur mening ismim, tun-u kuni ortar dardim,
Ikki jahonga maqsudim, menga sen keraksan sen.

Eshiting ey yoronlar,
Ishq bir quyoshga o'xshar.
Ishqi bo'lmagan ko'ngil,
Misoli toshga o'xshar.

Tosh ko'ngilda ne bitar,
Tilinda og'u tutar.
Qancha mayin gapirsa,
So'zi havoga uchar.

Ishqi bor ko'ngil yonar,
Yumshab mumga aylanar.
Tosh ko'ngillar qorayib,
Muzlagan qishga o'xshar.

Kech Yunus andishadan,
Kerak bo'lsa go'shadan.
Mardga ishq kerak,
Undan darveshga o'xshar.

Keldi, otdi umrim mening,
Shu esib o'tgan yel kabi.
Menga shunday tuyildi,
Bir ko'z yumib ochgan kabi.

Ushbu so'zga Haq guvohdir,
Bu jon tanga omonatdir.
Bir kun kelib tark etar,
Qush qafasdan uchgan kabi.

Miskin inson zotini,
O'xshatmishlar bir dehqonga.
Kimi bitar, kimiketar,
Yerga urug' sochgan kabi.